IBROXIM ATAMIRZAEV

# TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI

uslubiy ko'rsatma
(testlar va normativ hujjatlarda)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI KAFEDRASI

IBROXIM ATAMIRZAEV

# TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI

**uslubiy ko‘rsatma**
**(testlar va normativ hujjatlarda)**

Namangan - 2020

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti o'quv-uslubiy Kengashi tomonidan 2020 yil ____ _______dagi _____ – bayonnoma asosida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Turizmning huquqiy asoslari. Uslubiy ko'rsatma (testlar va normativ hujjatlarda).

**Mas'ul muharrir:** **yuridik fanlari doktori, professor X.T.Odilqoriev**

**Taqrizchilar:** **yuridik fanlari doktori SH.YAkubov**

**yuridik fanlari nomzodi M.Akaeva**

Ushbu uslubiy ko'rsatma nashri o'quvchilarga Turizmning huquqiy asoslari fanining mazmunan ixcham va qisqartirilgan tahlilini taqdim etmoqda. Har bir bo'lim orqali test, normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati hamda ilmiy adabiyotlar tavsiya etiladi. Qo'llanma huquqshunos hamda talabalarni bakalavriat yo'nalishi bo'yicha Turizmning huquqiy asoslari fanidan amaliy ko'nikmalar olishiga mo'ljallangan.

I.X.Atamirzaev. NamDU. 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MILLIY G’OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA**
**HUQUQ TA’LIMI KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_______ D. Xolmatov
«___» ______________2020 yil

# TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI
**fanining**

# ISHCHI O‘QUV DASTURI

2019/2020 o‘quv yili kunduzgi ta’lim shakli, 2-kurslari uchun

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 600000 | Xizmatlar soxasi |
| Ta'lim sohasi: | 610000 | Xizmat ko‘rsatish soxasi |
| Ta'lim yo‘nalishi | 5111600 | Mexmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish |

Namangan – 2020

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2019 yil 19 apreldagi №BD-5610200-2.04 bilan ruyxatga olingan "Turizmning huquqiy asoslari" fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** **katta o'qituvchi I.Atamirzaev**

Fanning ishchi o'quv dasturi _________ kafedrasining 2020 yil __- avgustdagi 1–sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** **O. Mamatov**

Ishchi o'quv dastur _________ fakultetining 2020 yil __-avgustdagi 1-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**Fakultet Kengashi raisi:** **N.B. Dexkanov**

**Kelishildi:**

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i v.v.b. X.Ibrohimov**

Ushbu dastur 5610200 – "Mexmonxona xo'jaligini tashkil etish" yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2019 yil 19 apreldagi №BD-5610200-2.04 bilan ruyxatga olingan "Turizmning huquqiy asoslari" fan dasturi asosida O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun», «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» kabi huquqiy–me'yoriy hujjatlarga binoan ishlab chiqildi.

Dastur Turizmning huquqiy asoslari faning maqsad vazifalari, turizmning asl moxiyatini, turizmning taraqqiyot yo'li, tajribasi, xozirgi kundagi muammolari, turizmning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy axamiyatini ochib beradi.

**Fanning maqsad va vazifalari**

**Fanning maqsadi** – talabalarda turizmning huquqiy asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** -talabalarni turizmning huquqiy asoslari haqidagi qonunchilikning rivojlanishi bilan tanishtirish;

- talabalarga turizmning huquqiy asoslarini o'rgatish va ularda bu fanni chuqurroq o'zlashtirishlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalarni o'quv qo'llanmalar va boshqa ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish.

**Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Turizmning huquqiy asoslari o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **talaba:**

- turizmning tushunchasi;
- turizmning huquqiy asoslari fanining tizimi va tuzilishining ahamiyati;
- O'zbekiston Respublikasi turizm to'g'risidagi Davlat siyosati haqida ma'lumotlar berish,
- turizm va turistning maqsadlarini aniqlab olish, huquqiy baho berish;
- turizmning tashkiliy tuzilishi, asosiy kategoriyalarini bilib olish;
- turizmda soliq va sug'urta va moliyaviy masalalarini bilib olish ***haqida bilimga ega bo'lishi;***

**Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma-ketligi**

"Turizmning huquqiy asoslari" fani 3-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirishda o'quv rejada rejalashtirilgan "Turizm asoslari", "Turizm menejmenti", "Xalqaro turizm" kabi fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etadi.

**Fanning ta'limdagi o'rni**

"Turizmning huquqiy asoslari" fani talabalarning bu soha bo'yicha muhim tushunchalar o'zlashtirishlarini, fanga oid ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Turizmning huquqiy asoslari fanining o'qitilishi talabalarni mulohaza yuritishga, mantiqan fikrlashga, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni

shakllantirish va yuksaltirishda turizmning huquqiy asoslari fani o'rnini aniqlash, turizm qonunchiligi va amalga oshirishni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning "Turizmning huquqiy asoslari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, bunda axborot va pedagogik texnologiya yutuqlari va imkoniyatlarini amalda foydalanish ko'zda tutiladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar turli texnik vositalar bilan jihozlanishi kerak. Fanni o'qitishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, internet saytlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

### Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

"Turizmning huquqiy asoslari" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy inson huquqlariga oid xalqaro va milliy standartlardan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

### Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

"Turizmning huquqiy asoslari" fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar, maqolalar, qo'llanma va ko'rsatmalar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

### Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil ta'limni tayyorlashda maxsus pedagogik fanlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha mavzularini o'rganish;

- nazariy material bo'yicha ta'lim texnologiyalarini tayyorlash;
- tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlar asosida dars jarayonini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tahlil natijalari asosida xulosa va takliflar berish.

Talabalarga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko'rsatiladi.

**Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

Fanga umumiy 144 soat ajratilgan bo'lib, shundan auditoriya mashg'ulotlari 64 soat bo'lib, semestrlar davomida haftasiga 4 soatdan o'tiladi.

**Semestr(lar) bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatning taqsimoti**

| Semestr | YUklama | Auditoriya mashg'ulotlari turi bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti (soat) | | | Mustaqil ta'lim |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Jami | Ma'ruza | Seminar mashg'ulot | |
| 3 | 144 | 64 | 32 | 32 | 80 |
| **Jami** | **144** | **64** | **32** | **32** | **80** |

**Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni va unga ajratilgan soatlar**

| № | Mavzular | Qisqacha mazmuni | Soati |
|---|---|---|---|
| 1. | Turizm soxasidagi faoliyat va uning huquqiy asoslari | Turizm soxasini huquqiy tartibga solish tushunchasi. Turizm soxasini huquqiy tartibga solishning mohiyati va asoslari. Xalqaro turizm va ichki turizm. Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, xarakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turizmning turlari va ularning huquqiy tartibga solish zaruriyati. | 2 |
| 2. | Turizm soxasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ huquqiy xujjatlar | Turizm soxasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ huquqiy xujjatlar tushunchasi. Turizm soxasini tartibga soluvchi qonunlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va turizm. O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlar. O'zbekiston Respublikasi Parlamentining turizm soxasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi vakolatlari va parlament palatalarining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm soxasining tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | turizm soxasining tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlari. Davlat xokimiyati boshqaruv organlari va turizm. Mahalliy davlat organlari va turizm. | |
| | Turizm soxasini tartibga soluvchi davlat organlari | Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining turizm soxasidagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turizm soxasidagi vakolatli davlat organi sifatida. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turizm soxasidagi vakolatli davlat organi bo'limlari. Mahalliy davlat xokimiyati organlari va ularning turizm soxasidagi vakolatlari.turistik axborot markaz-larini tashkil etish. Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiq-lashtiruvchi kengash uning tarkibi va vakolatlari. Byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab quvvatlash jamg'armasi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining turizm sohasi tadbirlarining ishtiroki. | 2 |
| | Turizm soxasida vakolatli davlat organi | O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi – O'zbekistonning turizm soxasidagi vakolatli davlat organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm soxasidagi qarorlari mazmun mohiyati. Turizm soxasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish.Turizm soxasida viza rejimini takomillashtirish va soddalashtirishga doir takliflar ishlab chiqish. Turizm soxasida yagona reesterlarni yuritish va tartibini belgilash. Turistik faoliyatni litsenziyalash, turizm soxasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirish, turistik xizmatlar belgilangan talablar muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish. Turizm soxasidagi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish. Vakolatli davlat organing Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi xududuiy bo'linmalari va ularning huquqiy maqomi. | 2 |
| | Turistik industriyaning huquqiy tartibga solinishi | Turistik industriya tushunchasi. Joylashtirish vositalari, transport va umumiy ovqatlanish ob'ektlari va ko'ngilochar, ma'rifiy, ishbilarmonlik, davolash va sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek ekskursiya etakchilarining, gidlar ham yo'riqchi yo'l boshlovchilapr xizmatlari. Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi. Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi. Turistik industriyadagi xizmatlar turlari. Turlarni taqdim etish bo'yicha xizmatlar. YAshash joylarini taqdim etish bo'yicha xizmatlar.Transport xizmatlari. Turistik industriya ob'ektlarini tasniflash. Joylashtirish vositalari. Turistik axborot xizmati. | |
| | Turistik zonalarining huquqiy maqomi va turistik klasterlar | Turistik zona tushunchasi. Turistik zonalarni va tashkil etishga doir takliflar kiritish. Turistik zonalar darajalari. Respublika darajasida turistik zonalar tashkil etish. Mahalliy darajasida turistik zonalar tashkil etish. Turistik zonalarni aniqlash va ularni mezonlari. Turistik zonalarda amalga oshiriladigan turistik faoliyat va qonun xujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat bo'yicha majburiyatlar. Turistik zonalarning turlari. Erkin turistik zona. Kichik turistik zona. Maxsus turistik zona. Turistik klasterlar tushunchasi. Turistik klasterlarning vazifalari. | 2 |
| | Turizm soxasidagi faoliyatni amalga oshirish shartlari | Turistik faoliyat tushunchasi. Turoperatorlik faoliyati tushunchasi. Turagentliklar faoliyati tushunchasi. Turoperator va turagentliklarning turistik faoliyatni litsenziya asosida amalga oshirishi. Turoperator va turagentliklarning faoliyatni amalga oshirishda litsenziya asosiy talablari va shartlari. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish. Turoperator xizmati va joylashtirish vositalari serti-fikatlashtirilish. Sertifikatlashtirilgan turitstik xizmatlar reestiri. Turizm sohasida standartlashtirish. Turoperator va turagentliklar faoliyati, turistik indutriya ob'ektalarining standartlashtirish. Gidlar va tarjimonlarning malakasini sertifikatlashtirish Turizm soxasida yagona reestirlar. | 2 |
| | Turistik maxsulotlarni shakllantirish va targ'ib qilish, va realizatsiya qilishning huquqiy asoslari | Turistik maxsulot tushunchasi. Turistik maxsulotlarni shakllantirish va targ'ib etish. Turistik maxsulotni shakllantirish. Turistik maxsulot targ'ib qilish.Kirish turizmi va ichki turizm soxalaridagi turistik maxsulotni shakllantirishning amalga oshirilishi. Turistik maxsulotni shakllantirish chog'ida turoperatorning | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | majburiyatlari. Turistik maxsulotni targ'ib qilish chog'ida turoperator va turagnentning turistik maxsulot to'g'risida axborotning ishonchliligi bo'yicha javobgarligi. Turagentning turistik maxsulotni targ'ib qilish bo'yicha turoperator bilan tuziladigan shartnomasi. O'zbekiston Milliy turistik brendi.Turistik xizmatlar ko'rsatish shartlari to'g'risidagi axborotni taqdim etish. | |
| | Turoperatorlar, turagentliklar, gidlar, gid tarjimonlar, ekskursiya etakchilari, yo'riqchi va yo'l boshlovchilarining huquq va majburiyatlari | Turoperator va turagentliklarning huquq va majburiyatlari. Turoperator va turagentliklarning huquqlari. Turning davomiyligi va yo'nalishni xizmat ko'rsatish shartlari. Xizmatlar ko'rsatish shartnomasini bekor qilish. Zararni o'rnini qoplanishini va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilishning talab qilish huquqi. Turoperator va turagentliklarning majburiyatlari. Turistik resurslarning saqlashiga ko'maklashish majburiyatlari. Turoperator va turagentliklarning majburiyatlari. Turistlar va ekskursantlarning turistik xizmat ko'rsatish shartnomasida shartlashilgan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash majburyaitlari. Turistlar va ekskursantlarning vaqtincha borilgan mamlakatda qonun xujjatlariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish majburiyati. | 2 |
| | Turistlar va ekskuranlarning huquq va majburiyatlari | Turist tushunchasi. Xalqaro huquqiy normalar va milliy qonunchilik asoslari. Turistlar va ekskurantlarning huquqlari. Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan xizmatlardan foydalanish huquqi. Turistlar va ekskurantlarning majburiyatlari. Turistik xizmatlar ko'rstaish shartnomasi shartlariga va vaqtincha bo'lish mamlakatining qonun xujjatlariga rioya etilishi uning siyosiy hamda ijtimoiy tuzilishini maxalliy an'analari urf odatlari diniy e'tiqodini xurmat qilish majburiyati. | 2 |
| | Turizm soxasi sub'ektlari birlashmalari | Turizm soxasi sub'ektlari birlashmalari tushunchasi. Turizm soxasi su'ektalarining birlashmasiga turizm sohasi sub'ektlarining ixtiyoriy a'zoligi prinsipi. Turoperator va turagentlar birlashmasi. Turoperator va turagentlar birlashmasi nodavlat notijorat tashkiloti. Turoperator va turagentlar birlashmasiga a'zolikning ochiqligi. Turizm to'g'risidagi qonun xujjatlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | amalga oshirish huquqi. Turizm. Turizm soxasidagi normativ huquqiy xujjatlar loyixalarini ishlab chiqishda va muxokama qilishda ishtirok etish huquqi.Turizm to'g'risidagi qonun xujjatlarinitakomillashtirishga doir takliflar tayyorlash va kiritish. | |
| | Xavfsiz turizmni ta'minlashning huquqiy asoslari | O'zbekiston Respublikasi xududida turistlar va ekskurantlar xavfsizligini davlat tomonidan kafolatlanishi.vaklotli davlat organining turistlar hamda ekskurantlarning xavfsizligini va ximoya qilinishini.Jamiyat va davlat manfaatlarini turizmdan xaxmlarning qonunga xilof migratsiyasi yuzasidan amalga oshiriladigan chora tadbirlar. Xavfsizlikni ta'minlash chora tadbirlarining mezonlari. Turizm soxasi sub'ektlariga tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amalga oshriladigan ishlar. Turoperator va turagentlar tomonidan turistlar ekskurantlarning xavfsizligini ta'minlashga doir chora tadbirlar. Turizm soxasida sug'urta qilish. | 2 |
| | Turizm soxasidagi xalqaro xamkorlikni huquqiy tartibga solish | Turizm soxasidagi xalqaro xamkorlikning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari.turizm soxasidagi ko'p tomonlama halqaro shartnomalar. Turizm bo'yicha Gaga dekloratsiyasi. Aloxida davlatlarning turistik faoliyatini tartibga solishga doir qonun xujjatlari. O'zbekistonning turizm soxasida xalqaro xamkorlikka doir shartnomalari. | 2 |
| | Xalqaro turistik tashkilotlar | Xalkaro turistik tashkilot tushinchasi. Xalkaro turistik tashkilot turlari va ularning umumiy tavsifi. Butunjaxon turistik tashkiloti. Tapshkil topish tarixi. ustavi,faoliyatning asosiy prinsiplari. Xalkaro fukoro fvifsiya tashkiloti. Xflkaro turistik alyans. Turistik agentliklar butunjaxon federatsiyasi. Xavo transporti xalkaro assotsiatsiyasi. Xalkaro mexonlar assotsiasiyasi. Kongress markazlari xalkaro assotsiatsiyasi.<br>Mintakaviy xalkaro tashkilotlar. Osiyo va tinch okeani mamlakatlari assotsiatsiyasi. Amerika turistik industriyasi assotsiatsiyasi. Turizm bo'yicha Karib Assotsiatssiya . Arab turistik ittifoqi. Evropa sayoxatlar komissiyasi. Ekologik turizm bo'yicha butunjaxon kongressi (1997, Braziliya).<br>Xalqaro turistik tadbirlar. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Turizm soxasidagi nizolar va ulami xal etish tartibi | Turizm soxasida nizo tushunchasi. Turizm soxasida nizolarning qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xal etilishi. SHartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikdan kelib chiquvchi nizolar. Nizo taraflari. Nizolami tinch yo'l bilan xal etish tartibi. Nizolami ko'rib chiqadigan javlat organlari. Nizolami ko'rib chiqish uchun davlat organlariga murojaat qilish tartibi. CHet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan yuzaga keladigan nizolar va ulami xal etish tartibi. | 2 |
| | Turizm soxasidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik | Javobgarlik tushunchasi. Turizm to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslarning belgilangan tartibda javobgarligi. Javobgarlikni belgilovchi qonun xujjatlari. SHartnomadan keltib chiquvchi javobgarlik. SHartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun turistning yoki ekskurantning javobgarligi. Buzilgan huqular yoki manfaatlarning sud orqali tiklanishi. Zarami qoplash. Neustoyka to'lash.Ma'naviy zarar va uning o'rnini qoplash. CHet davlat fuqarlarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning javobgarligi masalasi. | 2 |
| **Jami:** | | | **32** |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

| № | Mavzular | Qisqacha mazmuni | Soati |
|---|---|---|---|
| 1. | Turizm soxasidagi faoliyat va uning huquqiy asoslari | 1.Turizm soxasini huquqiy tartibga solish tushunchasi.<br>2.Turizm soxasini huquqiy tartibga solishning mohiyati va asoslari.<br>3.Xalqaro turizm va ichki turizm.<br>4.Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi. | 2 |
| 2. | Turizm soxasidagi munosabatlami tartibga soluvchi normativ huquqiy xujjatlar | 1.Turizm soxasidagi munosabatlami tartibga soluvchi normativ huquqiy xujjatlar tushunchasi.<br>2.Turizm soxasini tartibga soluvchi qonunlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va turizm.<br>3.O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlar. 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm soxasining tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlari.<br>5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining turizm soxasining tartibga soluvchi | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | normativ-huquqiy xujjatlari. | |
| 3. | Turizm soxasini tartibga soluvchi davlat organlari | 1.Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.<br>2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining turizm soxasidagi vakolatlari.<br>3.O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turizm soxasidagi vakolatli davlat organi sifatida. 4.Mahalliy davlat xokimiyati organlari va ularning turizm soxasidagi vakolatlari.<br>5.Byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab quvvatlash jamg'armasi. | 2 |
| 4. | Turizm soxasida vakolatli davlat organi | 1.O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi – O'zbekistonning turizm soxasidagi vakolatli davlat organi.<br>2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm soxasidagi qarorlari mazmun mohiyati. 3.Turizm soxasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish.<br>4.Turizm soxasida yagona reesterlarni yuritish va tartibini belgilash.<br>5.Turistik faoliyatni litsenziyalash, turizm soxasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirish. | 2 |
| 5. | Turistik industriyaning huquqiy tartibga solinishi | 1.Turistik industriya tushunchasi. 2.Joylashtirish vositalari.<br>3.Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi. 4.Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi.<br>5.Turistik industriyadagi xizmatlar turlari. 6.Turistik axborot xizmati. | 2 |
| 6. | Turistik zonalarining huquqiy maqomi va turistik klasterlar | 1.Turistik zona tushunchasi.<br>2.Turistik zonalarni va tashkil etishga doir takliflar kiritish.<br>3.Turistik zonalar darajalari.<br>4.Respublika darajasida turistik zonalar tashkil etish.<br>5.Turistik zonalarni aniqlash va ularni mezonlari.<br>6.Turistik zonalarning turlari.<br>7.Turistik klasterlarning vazifalari. | 2 |
| 7. | Turizm soxasidagi faoliyatni amalga oshirish shartlari | 1.Turistik faoliyat tushunchasi.<br>2.Turoperatorlik faoliyati tushunchasi. 3.Turagentliklar faoliyati tushunchasi. 4.Turoperator va turagentliklarning turistik faoliyatni litsenziya asosida amalga oshirishi. 5.Turoperator va turagentliklarning faoliyatni amalga oshirishda litsenziya asosiy talablari va shartlari.<br>6.Turizm soxasida yagona reestirlar. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 8. | Turistik maxsulotlarni shakllantirish va targ'ib qilish, va realizatsiya qilishning huquqiy asoslari | 1.Turistik maxsulot tushunchasi.<br>2.Turistik maxsulotlarni shakllantirish va targ'ib etish.<br>3.Turistik maxsulotni shakllantirish va turistik maxsulot targ'ib qilish.<br>4.Turistik maxsulotni shakllantirish chog'ida turoperatorning majburiyatlari.<br>5.O'zbekiston Milliy turistik brendi. | 2 |
| 9. | Turoperatorlar, turagentliklar, gidlar, gid tarjimonlar, ekskursiya etakchilari, yo'riqchi va yo'l boshlovchilarinin g huquq va majburiyatlari | 1.Turoperator va turagentliklarning huquq va majburiyatlari.<br>2.Turoperator va turagentliklarning huquqlari.<br>3.Xizmatlar ko'rsatish shartnomasini bekor qilish va zararni o'mini qoplanishini va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilishning talab qilish huquqi.<br>4.Turoperator va turagentliklarning majburiyatlari.<br>5.Turistlar va ekskursantlarning turistik xizmat ko'rsatish shartnomasida shartlashilgan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash majburyatlari. | 2 |
| 10. | Turistlar va ekskuranlarning huquq va majburiyatlari | 1.Turist tushunchasi.<br>2.Xalqaro huquqiy normalar va milliy qonunchilik asoslari.<br>3.Turistlar va ekskurantlarning huquqlari. 4.Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan xizmatlardan foydalanish huquqi. | 2 |
| 11. | Turizm soxasi sub'ektlari birlashmalari | 1.Turizm soxasi sub'ektlari birlashmalari tushunchasi.<br>2.Turizm soxasi sub'ektlarining birlashmasiga turizm sohasi sub'ektlarining ixtiyoriy a'zoligi prinsipi.<br>3.Turoperator va turagentlar birlashmasi. 4.Turizm to'g'risidagi qonun xujjatlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqi.<br>5.Turizm soxasidagi normativ huquqiy xujjatlar loyixalarini ishlab chiqishda va muxokama qilishda ishtirok etish huquqi. | 2 |
| 12. | Xavfsiz turizmni ta'minlashning huquqiy asoslari | 1.O'zbekiston Respublikasi xududida turistlar va ekskurantlar xavfsizligini davlat tomonidan kafolatlanishi.vaklotli davlat organining turistlar hamda ekskurantlarning xavfsizligini va ximoya qilinishini.<br>2.Jamiyat va davlat manfaatlarini turizmdan xaxmlarning qonunga xilof migratsiyasi yuzasidan amalga oshiriladigan chora tadbirlar.<br>3.Xavfsizlikni ta'minlash chora tadbirlarining mezonlari. | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 4.Turizm soxasida sug'urta qilish. | |
| 13. | Turizm soxasidagi xalqaro xamkorlikni huquqiy tartibga solish | 1.Turizm soxasidagi xalqaro xamkorlikning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari.turizm soxasidagi ko'p tomonlama halqaro shartnomalar.<br>2.Turizm bo'yicha Gaga dekloratsiyasi.<br>3. Aloxida davlatlarning turistik faoliyatini tartibga solishga doir qonun xujjatlari.<br>4.O'zbekistonning turizm soxasida xalqaro xamkorlikka doir shartnomalari. | 2 |
| 14. | Xalqaro turistik tashkilotlar | 1.Xalkaro turistik tashkilot tushunchasi. 2.Xalkaro turistik tashkilot turlari va ularning umumiy tavsifi.<br>3.Butunjaxon turistik tashkiloti.<br>4.Turistik agentliklar butunjaxon federatsiyasi.<br>5.Xavo transporti xalkaro assotsiatsiyasi.<br>6.Mintakaviy xalkaro tashkilotlar.<br>7.Ekologik turizm bo'yicha butunjaxon kongressi va xalqaro turistik tadbirlar. | 2 |
| 15. | Turizm soxasidagi nizolar va ularni xal etish tartibi | 1.Turizm soxasida nizo tushunchasi.<br>2.Turizm soxasida nizolarning qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xal etilishi.<br>3.SHartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikdan kelib chiquvchi nizolar.<br>4.Nizo taraflari.<br>5.Nizolarni ko'rib chiqish uchun davlat organlariga murojaat qilish tartibi.<br>6.CHet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan yuzaga keladigan nizolar va ularni xal etish tartibi. | 2 |
| 16. | Turizm soxasidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik | 1.Javobgarlik tushunchasi.<br>2.Turizm to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslarning belgilangan tartibda javobgarligi.<br>3.SHartnomadan keltib chiquvchi javobgarlik. SHartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun turistning yoki ekskurantning javobgarligi. 4.Buzilgan huqular yoki manfaatlarning sud orqali tiklanishi.<br>5.Zararni qoplash va Neustoyka to'lash hamda ma'naviy zarar va uning o'rnini qoplash.<br>6.CHet davlat fuqarlarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning javobgarligi masalasi. | 2 |
| | | **Jami:** | **32** |

## MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI

| № | Mustaqil ta'lim mavzusi | Mustaqil ta'lim shakli | soat |
|---|---|---|---|
| | 3- semestr | | |
| 1. | 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida turizmni rivojlantirish sohasidagi ustivor vazifalar. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 2. | Turizm sohasida faoliyat va uning huquqiy tartibga solish | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 3. | Halqaro va ichki turizm | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 4. | Turizm soxasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ huquqiy xujjatlar. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot. | 4 |
| 5. | O'zbekiston Respublikasi konstituitsiyasi va turizm. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 6. | O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni va uning mazmun mohiyati. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 7. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 8. | Mahalliy davlat oraganlari va turizm. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 9. | Turizm sohasini tartibga soluvchi davlat organlari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 10. | Byudjetdan tashqari turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 11. | Turistik industriyaning huquqiy tartibga solinishi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12. | Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot. | 4 |
| 13. | Turistik zonalarning huquqiy maqomi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot. | 4 |
| 14. | Turistik klasterlar va ularning vazifalari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot. | 4 |
| 15. | Turizm sohasida faoliyatni amalga oshirish shartlari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot. | 4 |
| 16. | Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 4 |
| 17. | Turizm sohada standartlashtirish. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot. | 2 |
| 18. | Turizm sohasidagi yagona reesterlar. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| 19. | Turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib qilish va realizatsiya qilishning huquqiy asoslari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| 20. | Turistlar va ekskuranlarning huquq va majburiyatlari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| 21. | Turizm sohasi sub'ektlarining birlashmalari. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| 22. | O'zbekiston respublikasi xududida turistlar va ekskuranlarning xavfsizligini davlat tmonidan kafolatlanishi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| 23. | Xalqaro turistik tashkilotlarning turlari va ularning umumiy tavsifi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| 24. | Turizm sohasidagi nizolar ualrni xal etish tartibi. | Mavzuga oid referat, nazorat savollari tuzish, glossariy, testlar tuzish, taqdimot | 2 |
| | **Jami:** | | **80** |

**TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI FANIDAN ORALIQ VA YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI**

1.Turizmning huquqiy asoslari
2.Turizm tarixi
3.Turizm siyosati
4.Turizm maqsadlari
5.Ijtimoiy turizm
6. Xalqaro turizm tushunchasi
7. Milliy turizm tushunchasi
8. Sayoxat tushnchasi va turlari
9.Turizmda ijtimoiy maqsadlar
10.Turistik resurslardan foydalanish
11.Turistik dam olish
12.Turistlarni qabul qilish
13.Turistlarni jo'natish
14.Aktiv turizm tushunchasi
15.Passiv turizm tushunchasi
16.Maxsus turizm tushunchasi
17.Qishloq turizmi tushunchasi
18.Ko'ngilocharlik turizmi tushunchasi
19.Tanishtiruvchi reklama safari
20.O'rganuvchi turizm
21.Etnik turizm tushunchasi
22.Xarbiy turizm tushunchasi
23.Ekoturizm tushunchasi
24.Diniy-ziyorat turizmi
25.Marosim turizmi
26.Turist tushunchasi
27.Turistning huquq majburiyatlari
28.Turistning maqsadlari
29.Turistning irqi, millati, jinsi, yoshi, tidi va dini
30.Turistik millat
31.Turistik industriya tushunchasi
32.Turoperatorlar tushunchasi va vazifalari
33.Turagentliklar tushunchasi va vazifalari
34.Turistlarni ovqatlantirish
35.Turizm infratuzilmasi tushunchasi
36.Turistik xizmatlar turlari
37.Turistik xizmatlar tarkibi
38.Ekskursiya xizmati turlari
39.Turistik maxsulotlar tushunchasi va turlari
41.Turistik ishlar
42.Turistik maishiy xizmatlar turlari
43.Turistik tovarlar turlari

6.Senin.V.S.Organizatsiya mejdunarodnaya turizma.- M. Finansi i statistika, 2009,400 s.

**Internet saytlari**

http: //www.press-servise.uz
http: //www.lex.uz
http: //www.gov.uz

**"Turizmning huquqiy asoslari asoslari" fanidan talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi**

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha YO'RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o'qituvchisi tomonidan birinchi mashg'ulotda Yo'riqnoma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

**Nazorat turlari:**

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida hamda mashg'ulotlardan keyin o'tkaziladi.

Talabalar mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o'zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg'ulotlarda olgan baholari barchasi qo'shiladi va olinishi shart bo'lgan baholar soniga bo'lgan holda o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

**Oraliq nazorat** fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o'tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o'quv mashg'ulotlari (seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ma'ruza mashg'ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo'lgan o'rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'B = \frac{MO'B + MTB + ONB}{3}$$

bu yerda: O'B- semestrda talabalarning olgan o'rtacha bahosi;
MO'B – mashg'ulotlarda to'plagan o'rtacha bahosi;
MTB – mustaqil ta'limdan olgan bahosi;
ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.

3 – mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabaning o'rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul'tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo'yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

**Talabalar bilimini baholash mezoni (TBBM):**

| Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|
| 5 – "A'lo" | Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilgandayu |
| 4 – "Yaxshi" | Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 3 – "Qoniqarli" | Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda. |
| 2 – "Qoniqarsiz" | Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda. |

**Talabala bilimini baholash:**

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalaga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yukuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lmagan hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan takdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmagani ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Baholash natijalarini qayd etish:**

Talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o'xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning Baholash daftariga yozilmaydi.

## TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI FANIDAN TEST SAVOLLARI

**1.Vaqtincha bo'lish mamlakatida tunab qolmasdan 24 soatdan oshmaydigan davrda sayyoxat qiluvchi jismoniy shaxs kim deyiladi.**

a) ekskurant
b) turistik vaucher
c) yo'riqchi yo'l boshlovchi
d) Tarjimon

**2. Turistlar tomnidan tur operatorlar va turagentliklar ishtirokisiz tashkil etiladigan sayyoxat qaysi javobda berilgan.**

a) Maxsus turizm
b) Ichki turizm
c) mustqil turizm
d) Maxsus turizm

**3.Turizm soxasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qaysi javobda xato berilgan?**

a) Turizm va turistik industriyani rivojlantirish
b) Turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyani jalb etish
c) Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilash
d) kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash malakasini oshirish

**4.Turistik faoliyatni litsenzilash qaysi organ tomnidan amalga oshiriladi.**

a) Oliy Majlis
b) Vazirlar Maxkamasi
c) O'zbek turizm
d) V va S javob to'g'ri

**5. Turizm to'g'risidagi Qonuni amalga kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori qachon qabul qilingan.**

a) 1999 yil 20 avgust
b) 1999 yil 20 iyun
c) 1998 yil 20 avgust
d) 1999 yil 21 oktyabr

**6. Sug'urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo'lgan tegishli sug'urta tashkilotlari bilan nima asosida faoliyat amalga oshiriladi.**

a) Faoliyat turini belgilanmagan
b) Memarandum
c) Shartnoma
d) Bitim

**7.Quyidagi qaysi javobda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan javob berilgan?**

a) Turistik faoliyat
b) Turistik sug'urta
c) Turistik xizmatlar
d) Turistik vaucher

**8.Turistik yo'llanmaning shakli qaysi organ tomnidan tasdiqlanadi.**

a) Vazirlar Maxkamasi tomonidan
b) Prezident devoni tomonidan
c) Turizm soxasidagi vakolatli organ tomonidan
d) barcha javob to'g'ri

**9.Maxalliy davlat xokimyati organlari turizm soxasidagi qanday dasturlarni ishlab chiqadilar?**

a) maxalliy dasturlar
b) me'yoriy dasturlar
c) mintaqaviy dasturlar
d) Ijro dasturlari

**10.Turistining majburiyatlari qaysi javobda to'g'ri berilgan**
**Turist:**
1.SHartnoma shartlariga amal qilish:
2.SHoshilinch tibbiy yordam olish:
3.Bojxona chegalari nazratiga amal qilish:
4.Ishonchli axborot olish:
5.Borilgan mamlakat qonun xujjatlari talablariga rioya etish:
6.SHarnomani bekor qilish:
7.Turistik xizmat majmuidan foydalanish.
a) 2, 4, 6. b) 1, 3, 5. c)2, 5, 7 d) 3, 6, 1.

**11. Turistning tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va ularning haqi to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat**

a) Patent
b) Turistik vaucher
c) Sertifikat
d) Litsenziya

**12. Turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs kim?**

a) Ekskursant
b) Mustaqil turist
c) Yo'riqchi va yo'l boshlovchi
d) Ekskursiya etakchisi

**13.Qonunning prinsiplari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.**

a) Oshkoralik va adolat
b) Oshkoralik va ochiqlik
c) Insonparvarlik va demokratizm
d) Oshkoralik va shaffoflik

**14. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirisb vazifasiga mos javobni aniqlang.**

a) Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishi
b) Parlament tomonidan qonun qabul qilish
c) Vazirlar Mahkamasi faoliyati
d) Barcha javoblar to'g'ri

**15. Turistik zonalar, turistik klasterlarni tashkil etish va ularda turizm sohasi subektlari faoliyatini amalga oshirish tartibini qaysi organ belgilaydi.**

a) Vakolatli davlat organi
b) Turizm qo'mitasi
c) Vazirlar Mahkamasi
d) Turistik agenlik

**16. Turistlar va ekskursantlar borishi taqiqlangan obektlar hamda hududlarni qaysi organ belgilaydi;**

a) Vazirlar Mahkamasi
b) Turizm qo'mitasi
c) Turizmni muvofiqlashtiruvchi kengash
d) Mahalliy davlat organlari

**17. Turizm sohasidagi yagona reestrlarni yuritish tartibini belgilash vazifasi**

a) Turizm qo'mitasi
b) Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi
c) Turizmni muvofiqlashtiruvchi kengash
d) Vazirlar Mahkamasi

**18. Turistik industriya obektlarini tasniflash va ularga toifalar berish qanday amalga oshiriladi.**

a) Majburiy
b) Sertifikat
c) Ixtiyoriy
d) Litsenziya

**19. Turistik zonalar turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

a) Maxsus, tartibli, erkin
b) Kichik, katta, o'rta
c) Mustaqil, maxsus, katta
d) Erkin, kichik, maxsus.

**20. O'zbekistonning turistik salohiyatini targ'ib qilishga va chet ellik turistlarni jalb etishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni xorijda o'tkazish bo'yicha "yo'l xaritasini" har yili tasdiqlash vazifasi qaysi organ bajaradi.**

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
b) Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash
c) Qo'mita
d) Barcha javoblar to'g'ri

**21. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan.**

a) 2019 yil 18 aprelda
b) 2019 yil 19 mayda
c) 2019 yil 16 aprelda
d) 2019 yil 12 aprelda

**22. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida Qonuni Senat tomonidan tomonidan qachon ma'qullangan.**

a) 2019 yil 18 aprelda
b) 2019 yil 21 iyunda
c) 2019 yil 16 aprelda
d) 2019 yil 12 iyunda

**23. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida Qonuni nechta moddadan iborat.**

a) 45 modda
b) 96 modda
c) 30 modda
d) 41 modda

**24. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida Qonuning maqsadi qaysi javobda berilgan**

a) Turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat
b) Turizm va sayoxat munosabatlarini tartibga solishdan iborat
c) Ichki turizmni xalqaro munosabatlarga oid ishlarni tartibga soladi
d) A/S javoblari to'g'ri

**25. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa ....**

a) xalqaro pakt qoidalari qo'llaniladi
b) BMT qoidalari inobatga olinadi
c) xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi
d) xalqaro memurandum qoidalari qo'llaniladi

**26. Axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko'rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish mamlakatidagi turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs qaysi javobda berilgan**

a) yo'riqchi-yo'l boshlovchi
b) mustaqil turizm
c) turizm sohasining subektlari
d) gid (gid-tarjimon)

**27.Turistik yo'nalishlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs qaysi javobda berilgan**

a) yo'riqchi-yo'l boshlovchi
b) mustaqil turizm
c) turizm sohasining subektlari
d) gid (gid-tarjimon)

**28. Turistlar tomonidan turoperatorlar va turagentlar ishtirokisiz mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohat nima deyiladi.**

a) Mustaqil turizm
b) Ichki turizm
c) Tashqi turizm
d) Turistik zona

**29. Turistik xizmatlarning kamida ikkita turini o'z ichiga olgan turistik xizmatlar majmui bilan ta'minlangan, belgilangan yo'nalish bo'yicha aniq muddatlardagi sayohat qaysi javlbda berilgan**

a) Turoperator
b) Tur
c) Turizm
d) Turagent

**30. Jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi qaysi javobda berilgan.**

a) Turagent
b) Tur
c) Turizm
d) Turoperator

**31. Turistning tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va ularning haqi to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat qaysi javobda berilgan.**

a) turistik yo'nalish
b) tur
c) turistik vaucher
d) Sertifikat

**32. Sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro'yxati bo'yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo'li qaysi javobda berilgan.**

a) Ekskursiya yo'nalishi
b) Turistik yo'nalish
c) Turistik xizmat
d) Turistik eksponat

**33.Joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar qaysi javobda berilgan.**

a) Ekskursiya xizmati
b) Turistik yo'nalish
c) Turistik xizmat
d) turistik xizmatlar

**34.Vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyid tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs qaysi javobda berilgan.**

a) Ekskurant
b) Turist
c) Turoperator
d) Turagent

**35.Turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs qaysi javobda berilgan.**

a) Ekskurant
b) Ekskursiya etakchisi
c) Turoperator
d) Turagent

**36.Turizm to'g'risidagi Qonunning asosiy prinsiplari qaysi javobda berilgan.**

a) turizm sohasida oshkoralik va ochiqlik
b) adolatlilik
c) Insonparvarlik
d) Demokratizm

**37.Turizmning shakllari qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Dunyo va siyosiy turizm
b) Tashqi va ichki turizm
c) Qiyosiy va sotsial turizm
d) Xalqaro va ichki turizm

**38. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Chiqish turizmi
b) Kirish turizmi
c) Qiyosiy turizmi
d) Xalqaro turizmi

**39. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Chiqish turizmi
b) Kirish turizmi
c) Qiyosiy turizmi
d) Xalqaro turizmi

**40. Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi qaysi javobda berilgan.**

a) madaniy-tarixiy, ziyorat
b) gastronomik, ishbilarmonlik
c) sport, tibbiy
d) Xamma javoblar to'g'ri

**41. Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi qaysi organ.**

a) Vazirlar Mahkamasi
b) Oliy Majlis
c) Prezident Administratsiyasi
d) Qo'mita

**42. Turizm sohasida xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi.**

a) Prezident Administratsiyasi
b) Oliy Majlis
c) Vazirlar Mahkamasi
d) Qo'mita

**43. Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Mazkur sohani mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish;
b) Turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;
c) Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish
d) Xamma javoblar to'g'ri

**44. Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qaysi javobda xato berilgan.**

a) Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va investitsiyalar eksporti uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
b) Mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
c) Tadbirkorlik subektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;
d) Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish

**45. Turistlar va ekskursantlarning ayrim toifalariga imtiyozlar berish tartibini qaysi organ belgilaydi.**

a) Prezident Administratsiyasi
b) Oliy Majlis
c) Vazirlar Mahkamasi
d) Qo'mita

**46. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm sohasidagi vakolatlari qaysi javobda xato berilgan.**

a) Turizm sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;
b) Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi;
c) Turizm sohasida xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi
d) Xato javob berilmagan

**47. Turistlar va ekskursantlarni sug'urta qilish, ularga tibbiy, huquqiy hamda boshqa turdagi yordam ko'rsatish tartibini qaysi javobdagi organ belgilaydi.**

a) Prezident Administratsiyasi
b) Oliy Majlis
c) Turizm qo'mitasi
d) Vazirlar Mahkamasi

**48. Turistlar va ekskursantlar borishi taqiqlangan obektlar hamda hududlarni belgilaydi qaysi organ**

a) Prezident Administratsiyasi
b) Oliy Majlis
c) Vazirlar Mahkamasi
d) Qo'mita

**49. Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish vakolatiga ega javob berilgan qatorni aniqlang.**

a) Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari
b) Vazirlar Mahkamasi vakolati
c) Qo'mita vakolati
d) Agentliklar

**50. Turistlar va ekskursantlarni sug'urta qilish, ularga tibbiy, huquqiy hamda boshqa turdagi yordam ko'rsatish tartibini belgilaydi qaysi organ.**

a) Vazirlar Maxkamasi
b) Oliy Majlis
c) Qo'mita
d) Moliya vazirligi

**51. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari qaysi javobda berilgan**

a) Tegishli hududda turizm sohasidagi davlat siyosatini hamda ushbu sohani muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;
b) Turistik axborot markazlarini tashkil etadi.
c) Tegishli hududda joylashgan turistik resurslarni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularni joriy etadi;
d) Hamma javoblar to'g'ri

**52. Turistik axborot markazlarini tashkil etish vakolati ega javob qaysi qatorda berilgan.**

a) Oliy Majlis
b) Mahalliy davlt xokimiyati organlari
c) Vazirlar Mahkamasi
d) Turizm qo'mitasi

**53. Turizmni barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari bo'yicha davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, turizm sohasi subektlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida tuziladigan organ qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash
b) Turizm qo'mitasi
c) Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi birlashma
d) To'g'ri javob yuq

**54. Turistik industriyadagi xizmatlarning turlari qaysi javobda berilgan.**

a) Joylashtirish vositalari, transport,
b) Umumiy ovqatlanish obektlari va ko'ngilochar, ma'rifiy, ishbilarmonlik.
c) Turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar majmui
d) Barcha javoblar to'g'ri

**55. Turistik industriya obektlarini tasniflash va ularga toifalar berish qanday asosda amalga oshiriladi.**

a) Ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi
b) Majburiy asosda amalga oshiriladi
c) Qonuniy asosda amalga oshiriladi
d) Nazariy asosda amalga oshiriladi

**56. Turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ'ib qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi markaz qaysi javobda berilgan.**

a) Turagenlik faoliyatidir

b) Turoperatorlik faoliyatidir
c) Turistik axborot markazidir
d) a) va b) to'g'ri

**57. Turistik axborot markazi qanday shartlari asosida tashkil etilishi mumkin.**
a) Qonuniy va shartnomaviy
b) Lombard va an'anaviy
c) Xususiy va tijorat
d) davlat-xususiy sheriklik

**58. Muayyan chegaralarga ega bo'lgan, bir yoki bir necha turistik resurslar joylashgan, hudud qaysi javobda berilgan.**
a) Turistik klaster
b) Turistik zona
c) Turistik xudud
d) Turistik majmua

**59. Turistik zonalar davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek qanday faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning taklifiga ko'ra tashkil etiladi.**
a) Auditorlik
b) Yuridik
c) Tadbirkorlik
d) Xamma javoblar to'g'ri

**60. Turistik zonalar qanday tashkil etiladi.**
a) Mahalliy va avtanom
b) Respublika yoki mahalliy
c) Xududiy va markaziy
d) Kollegial va ma'muriy

**61. Turistik zonalarni aniqlashdagi mezon qaysi javobda berilgan.**
a. Turistik resurslarning mavjudligi
b) Potensial imkoniyatlar
c) A va B javoblar to'g'ri
d) To'g'ri javob yo'q

**62. Turizm sohasi subektlari turistik zonalar hududlarida o'z faoliyatini tashkil etishda va amalga oshirishda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari qaysi javobda berilgan.**
a) Madaniy meros obektlariga hamda maxsus muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga
b) Atrof tabiiy muhitga
c) Qo'riklanadigan ob'ektlarga
d) Barcha javoblar to'g'ri

**63. Turistik zonalarning turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan.**
a) Erkin, kichik, maxsus.
b) Erkin, xususiy, maxsus
c) Ixtiyoriy, kichik, maxsus

d) Erkin, majburiy, ixtiyoriy

**64.Erkin turistik zona qanday turistik zonaga tenglashtiriladi.**

a) Maxsus iqtisodiy
b) Xususiy iqtisodiy
c) Erkin iqtisodiy
d) Kichik iqtisodiy

**65. Erkin iqtisodiy zonalar va ularning ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar hamda......**

a) Protseduralar tatbiq etiladi.
b) Ekstraditsiyalar tatbiq etiladi.
c) Invesitsiyalar tatbiq etiladi.
d) Preferensiyalar tatbiq etiladi.

**66. Kichik turistik zona qaday zonalarga tenglashtiriladi.**

a) Maxsus sanoat zonasiga
b) Iqtisodiy sanoat zonasiga
c) Kichik sanoat zonasiga
d) Barcha javoblar to'g'ri

**67. Turistik mahsulotni shakllantiradi, targ'ib etadi va realizatsiya qiladi......**

a) Erkin iqtisodiy zona
b) Turoperator
c) Turistik klaster
d) Turagent

**68. Turistik klasterlar..... turistik mahsulotni shakllantiradi, targ'ib etadi va realizatsiya qiladi.**

a) Turistik mahsulotni shakllantiradi
b) Turistik mahsulotni targ'ib etadi
c) Turistik mahsulotni realizatsiya qiladi
d) Barcha javoblar to'g'ri

**69.Turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi mustaqil tashkilotlar majmui......**

a) Turistik klaster
b) Erkin iqtisodiy zona
c) Maxsus iqtisodiy zona
d) Kichik iqtisodiy zona

**70. Turistik industriya obektlari jamlanadigan turistik zona qaysi javobda berilgan.**

a) Erkin turistik zona
b) Iqtisodiy turistik zona
c) Maxsus turistik zona
d) Kichik turistik zona

**71. Sayohatlar tashkil etishga doir boshqa faoliyat turistik faoliyatdir. So'z nima xaqida ketmoqda.**

a) Turoperatorlik va turagentlik faoliyati

b) Turistik faoliyatni realizatsiya qilish
c) Turistik faoliyatni litsenziya qilish
d) Turistik faoliyatni targ'ib etish qilish

**72.Turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati qaysi javobda berilgan.**

a) Turagentlik faoliyati
b) Turistik faoliyat
c) Tur faoliyati
d) Turoperatorlik faoliyati

**73.Turistik mahsulotni targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati qaysi javobda berilgan**

a) Turagentlik faoliyati
b) Turistik faoliyat
c) Tur faoliyati
d) Turoperatorlik faoliyati

**74.Turoperatorlar va turagentlar turistik faoliyatni vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan nima asosida amalga oshiradi.**

a) Shartnoma
b) Letsenziya
c) Guvoxnoma
d) Tur paket

**75.Turoperatorlar va turagentlarga turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya amal qilish muddati.......**

a) Shartnoma asosida beriladi
b) 5 yilga beriladi
c) 10 yilga beriladi
d) cheklanmagan holda beriladi

**76.Ekskursiya xizmatlari ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan jismoniy shaxslarga turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun....**

a) Shartnoma talab qilinadi
b) Litsenziya olish talab qilinmaydi
c) Litsenziya olish talab qilinadi
d) Guvoxnoma talab qilinadi

**77.Turoperator xizmati, joylashtirish vositalari, tog' chang'isi trassalari va plyajlar qanday tartibda sertifikatlashtirilishi lozim.**

a) Ixtiyoriy
b) Anonim
c) Majburiy
d) Sug'urtaviy

**78.Sertifikatlashtirilgan turistik xizmatlarning reestrini yuritadi. Vakolatli davlat organi**

a) Vakolatli davlat organi

b) Vazirlar Mahkamasi
c) Qo'mita
d) Maxalliy xokimiyat organi

**79.Turizm sohasida standartlashtirish maqsadi qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Turistlar va ekskursantlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish
b) Turizm saloxiyatini takomillashtirish
c) Turizm birlashmalarini maqomini mustaxkamlash
d) Turlar sonini ko'paytirish

**80.Vakolatli davlat organi.......**

a) Turistik xizmatlar sohasidagi standartlashtirishga doir ishlarni tashkil etish
b) Turistik xizmatlar sohasidagi standartlashtirishga doir ishlarni muvofiqlashtirish
c) turistik xizmatlar sohasidagi standartlashtirishga doir ishlarni bajarilishini ta'minlash
d) Xamma javoblar to'g'ri

**81.Vakolatli davlat organi.....**

a) Turizm sohasidagi yagona reestrlarni shakllantiradi
b) Turizm sohasidagi yagona reestrlarni yuritadi
c) a) va b) to'g'ri
d) a) va c) to'g'ri

**82. Turistning yoki ekskursantning buyurtmasiga ko'ra turoperator tomonidan shakllantiriladigan, turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan xizmatlar.......**

a) Turistik xizmatlar majmuidir
b) Turizm sohasidagi yagona reestr
c) a) va b) to'g'ri
d) a) va c) to'g'ri

**83.Turistik mahsulotni realizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui....**

a) Turistik xizmatlar majmuidir
b) Turistik mahsulotni targ'ib etishdir
c) Turistik mahsulotni realizatsiya qilishdir
d) a) va c) to'g'ri

**84. Turistik mahsulotni shakllantirish uchun turoperatorga beradigan buyurtmasi dastlabki shartnoma xususiyatiga ega bo'lgan....**

a) Shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi
b) Guvoxnoma tarzida rasmiylashtiriladi
c) Bitim tarzida rasmiylashtiriladi
d) a) va c) to'g'ri

**85. Turistik mahsulotni shakllantirish faqat.....**

a) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan turoperatorlar tomonidan amalga oshiriladi

b) O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan turagentlar tomonidan amalga oshiriladi
c) Qo'mita tomonidan amalga oshiriladi.
d) Xamma javoblar to'g'ri

**86.Turistik mahsulotni targ'ib etish chog'ida kimlar turistik mahsulot to'g'risidagi axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi.**

a) Qo'mita va agentlik
b) Turoperator va turist
c) Turoperator va turagent
d) Ekskurant va turoperator

**87.Turagent turistik mahsulotni targ'ib etishni kim bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiradi.**

a) Turist
b) Ekskurant
c) Turist yo'lovchi
d) Turoperator

**88.Turistik mahsulotlarni reklama qilish chog'ida turizm sohasida belgilangan milliy tanitish belgisidan foydalanish......**

a) Ixtiyoriydir
b) Majburiydir
c) Shart emas
d) A va S javoblari to'g'ri

**89.Turistik mahsulotni realizatsiya qilish kimlar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.**

a) Turoperator, turagent, buyurtmachi
b) Turist, turagent, tashkilotchi
c) Qo'mita raisi, gid tarjimon, ekskurant
d) Turoperator, tashkilotchi, buyurtmachi

**90.Qaysi javobda turistik mahsulotning buyurtmachisi to'g'ri berilgan.**

a) Turoperator, tashkilotchi
b) Turist, turagent
c) Turist, ekskursant
d) Turagent, buyurtmachi

**91.Turagent va turoperator o'rtasidagi shartnomada shartlari qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

a) Turistik mahsulotni turagent tomonidan realizatsiya qilish
b) Turoperator va turagentning hamkorligi
c) Turoperatorning va turagentning javobgarligi
d) Xamma javoblar to'g'ri

**92.Turistik mahsulotni realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan hajm doirasidagi ma'lumotlar qaysi javobda berilgan.**

1.Turoperator, turagentning nomi 2. Maxsulot nomi 3.Pochta manzili 4.Litsenziyaraqami 5.Tanish belgisi. 6. Milliy brend

a) 1.2, 4.
b) 6, 4, 2.

c) 5, 2, 1.
d) 1, 3, 4.

**93.Ekskursiya etakchilari, gidlar (gid-tarjimonlar) va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar qanday asosda o'z xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.**

a) Shartnoma asosida
b) Litsenziya asosida
c) Shartnoma tuzmasdan ham
d) Sertifikat asosida

**94.O'zbekiston Respublikasining Turizm soxasidagi tanitish belgisi va shiori....**

a) Milliy valyuta
b) Davlat ramzlari
c) Tashqi atributlar
d) Milliy turistik brend

**95.O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi tanitish belgisining shakli, rangli tasviri hamda shiorning mazmuni qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi.**

a) Vazirlar Mahkamasi tomonidan
b) Oliy Majlis tomonidan
c) Vakolatli davlat organi tomonidan
d) Turizm qo'mitasi tomonidan

**96.O'zbekistonning Milliy turistik brendidan foydalanilishi mumkin bo'lgan mezon qaysi javobda berilgan.**

a) Tovarlarni targ'ib etishda
b) OAV larida
c) Gazeta va ilmiy jurnallarda
d) Bunday mezon yo'q

**97.Turoperatorlar va turagentlar qachon turistga va ekskursantga axborotni taqdim etishi shart.**

a) Tovarlarni targ'ib etishda
b) Tur paket olishda
c) Reklama qilish chog'ida
d) Shartnomasini tuzish chog'ida

**98.Turizm sohasi subektlarining kasbiy faoliyatini muvofiqlashtirish, manfaatlarni ifodalash, himoya qilish maqsadida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti bu....**

a) Turizm sohasi subektlarining birlashmasi
b) Muvofiqlashtiruvchi kengash
c) Vakolatli organ
d) To'g'ri javob yo'q

**99.Turizm sohasi subektlarining birlashmasi O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida faoliyatini amalga oshiruvchi turizm sohasi subektlarining qanday prinsipiga asoslanadi.**

a) Majburiy a'zoligi
b) Ixtiyoriy a'zoligi

c) Shartnomaviy a'zoligi
d) Badallarni o'z vaqtida to'lash

**100.Turoperatorlar va turagentlar o'z tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, manfaatlarini ifodalash, himoya qilish maqsadida......**

a) Qo'mita tuzish mumkin
b) Agentlik tuzish mumkin
c) Birlashma tuzishi mumkin
d) To'g'ri javob yo'q

**101.Turoperatorlar va turagentlar birlashmasi yangi a'zolar kirishi uchun....**

a) Yopiqdir
b) Ixtiyoriydir
c) Majburiydir
d) Ochiqdir

**102.O'zbekiston Respublikasi hududida turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi......**

a) Qo'mita tomonidan kafolatlanadi.
b) Agentlik tomonidan kafolatlanadi.
c) Davlat tomonidan kafolatlanadi.
d) Turpaket bilan kafolatlanadi.

**103.Xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari qaysi javobda berilgan.**

a) Turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligi
b) Mol-mulki but saqlanishi
c) Jamiyatning moddiy hamda ma'naviy qadriyatlariga zarar etkazilishining oldini olish
d) Xamma javoblar to'g'ri

**104.Turistik yo'nalishlar bo'yicha turistlar va ekskursantlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy dasturlar qaysi organ ishlab chiqadi.**

a) Vazirlar Mahkamasi
b) Mahalliy davlat hokimiyati organlari
c) Turizm qo'mitasi
d) Turagentlik

**105.Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash, tabiiy ofatlar chog'ida, jarohatlanganda tibbiy va o'zga tarzda yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi...**

a) Vazirlar Maxkamasi
b) Turizm qo'mitasi
c) Turizm sohasi subektlari
d) Maxalliy xokimyat organlari

**106.Turoperatorlarni, turagentlarni, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish mamlakatidagi turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid to'g'risida xabardor qiladi...**

a) Vazirlar Maxkamasi
b) Vakolatli davlat organi

c) Turizm sohasi subektlari
d) Maxalliy xokimyat organlari

**107.Ommaviy axborot vositalari vakolatli davlat organiga turistlar va ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid haqidagi axborotni e'lon qilish imkoniyatini....**

a) Bepul taqdim etadi.
b) Pullik taqdim etadi.
c) Shartnomada ko'rsatilgan muddatda taqdim etadi.
d) Barcha javoblar to'g'ri

**108.Turistlar va ekskursantlar guruhlarini kuzatib boruvchi shaxslar birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun dasturiy asosda nimalarga ega bo'lishlari shart.**

a) Minimal tibbiy tayyorgarlikka
b) Tibbiy buyumlarga
c) Dori qutichasiga
d) A,V, S javoblari to'g'ri

**109.O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga zarur yordam ko'rsatish....**

a) Ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi
b) Favqulotda vaziyatlar tomonidan
c) IIB tomonidan
d) Barcha javoblar to'g'ri

**110.Qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar va boshqa qutqaruv xizmatlarida xamkor tashkilotlar qaysi javobda to'g'ri berilgan.**

1.Mahalliy davlat hokimiyati organlari. 2.Moliya boshqarmasi 3.Sog'liqni saqlash. 4.Din ishlari bo'yicha qo'mita 5.Ichki ishlar organlari. 6.DXX 7.Davlat o'rmon xo'jaligi. 8.Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari

a) 1, 4, 5 ,6.
b) 8, 7, 6, 5.
c) 2, 4, 6, 8.
d) 1, 3, 7, 8.

**111.Turistlar va ekskursantlarni sug'urta qilish....**

a) Majburiydir
b) Shartdir
c) Ixtiyoriydir
d) Muximdir

**112. Turoperatorlar va turagentlar turistik mahsulotning xususiyati hamda shakliga qarab qanday talab belgilash huquqiga ega.**

a) Turpaket
b) Sug'urta polisi
c) Sertifikat
d) Litsenziya

**113.Turoperatorlar o'zining fuqarolik javobgarligini.......**

a) Sug'urta qilishi shart

b) Sug'urta qilishi shart emas
c) Litsenziya olishi shart
d) Sertifikat qilishi shart

**114.Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik nimala asosida amalga oshiriladi.**

a) Halqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari
b) Halqaro shartnomalari
c) Qonun hujjatlari
d) Xamma javoblar to'g'ri

**115.Turizm sohasidagi nizolar qanday tartibda hal etiladi.**

a) BMT normalari bilan
b) Kodekslar bilan
c) Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda
d) Qonun rsti xujjatlarida belgilangan tartibda

## TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1.O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonuni qachon qabul qilingan?

2. O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan.

3. O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonuni Senat tomonidan qachon qabul qilingan.

4. O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonuni maqsadi nimalardan iborat.

5. O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonunga asosan turizm to‘g‘risidagi qonun hujjatlari nimalarda iborat.

6. Tid (gid-tarjimon) nima degani?

7. Yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi nima degani?

8. Mustaqil turizm haqida nimalarni bilasiz?

9. Turizm sohasining subektlariga nimalar kiradi?

10. Tur nima bu haqida tushuncha bering?

11. Turizm deganda imani tushunasiz?

12. Turist deganda nimani tushunasiz?

13. Turistik vaucher xaqida tushuncha bering?

14.Turistik yo‘nalish haqida ma’lumot bering?

15. Turistik xizmatlar xaqida ma’lumot bering.

16. Ekskursant haqida nimalarni bilasiz?

17. Ekskursiya etakchisi kim va u haqida ma’lumot bering

18. O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonuni asosiy prinsiplari qaysilar.

19.O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi qonuninig turistlarning, ekskursantlarning va turizm sohasi subektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi prinsipiga tushuncha bering.

20.Turizmning shakllari va turlari haqida ma’lumot bering.

21.Xalqaro va ichki turizm haqida ma’lumot bering.

22. Xalqaro turizm o‘z ichiga nimalarni oladi.

23. Kirish turizmi nima?

24.CHiqish turizmi nima?

25.Turizm sohasini tartibga solish buyicha nimalarni bilasiz?

26. Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

27. Turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash; normativ-huquqiy bazani takomillashtirish haqida nimalarni bilasiz?

28.Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va investitsiyalar kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish; tadbirkorlik subektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish haqida tushuncha bering?

29.Turizm sohasining subektlariga soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash orqali rag'batlantirish masalasi haqida ma'lumot bering.

30.Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari va mol-mulki himoya qilinishini ta'minlash buyicha ma'lumot bering.

31. Turizm soxasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maslasi bo'yicha nimalarni bilasiz?

32.Turizm soxasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari nimalardan iborat.

33.Turistlar va ekskursantlarni sug'urta qilish, ularga tibbiy, huquqiy hamda boshqa turdagi yordam ko'rsatish tartibini belgilash bo'yicha nimalarni bilasiz.

34.Turistlar va ekskursantlar borishi taqiqlangan obektlar hamda hududlarni belgilash bo'yicha ma'lumot bering.

35.Turistlar va ekskursantlarning ayrim toifalariga imtiyozlar berish tartibi bo'yicha ma'lumot bering.

36.Turizm sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi bo'yicha nimlarni bilasiz.

37.Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi xaqida nimmlarni bilasiz.

38.Turizm sohasida viza rejimini takomillashtirish va soddalashtirish bo'yicha ma'lumot bering.

39.Turizm sohasidagi yagona reestrlarni yuritish tartibi bo'yicha ma'lumot bering.

40.Litsenziyalashni, turizm sohasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha nimalarni bilasiz?

41.Turizm sohasidagi milliy tanitish belgisidan foydalanish tartibi bo'yicha ma'lumot bering.

42.Turizm sohasini rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini, shuningdek xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari hamda grantlarini jalb etish bo'yicha ma'lumot bering.

43.Turizm soxasida vakolatli davlat organining hududiy bo'linmalari bo'yicha ma'lumot bering.

44.Mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat.

45.Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati haqida ma'lumot bering.

46. Byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi haqida tushuncha bering.

47. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va nodavlat notijorat tashkilotlarining turizm sohasi tadbirlaridagi ishtiroki bo'yicha nimlarni bilasiz.

48.Turistik industriya nima ?

49. Turistik industriya va turistik industriyadagi xizmatlarning turlari bo'yicha ma'lumot bering.

50.Turistik industriya obektlarini tasniflang.

51.Turistik axborot markazi haqida ma'lumot bering.

52.Turistik zonalar haqida ma'lumot bering.

53. Turistik klasterlar haqida ma'lumot bering.

54.Turistik zonalarning turlari haqida nimmlarni bilasiz

55.Erkin turistik zona xaqida ma'lumot bering

56.Kichik turistik zona xaqida ma'lumot bering

57.Maxsus turistik zona xaqida ma'lumot bering

58.Turistik klaster haqida ma'lumot bering.

59.Turizm sohasidagi faoliyatni amalga oshirish shartlari nimalardan iborat.

60. Turistik faoliyatni litsenziyalash bo'yicha ma'lumot bering.

61.Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha nimalarni bilasiz.

62.Turoperator xizmati, bo'yicha ma'lumot bering.

63.Turizm sohasida standartlashtirish haqida ma'lumot bering.

64.Gidlarning (gid-tarjimonlarning), ekskursiya etakchilarining va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning malakasini sertifikatlashtirish bo'yicha ma'lumot bering.

65.Turizm sohasidagi yagona reestrlar yuritish tartibi bo'yicha ma'lumot bering.

66.Turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz

67. Turistik mahsulotni shakllantirish va targ'ib etish bo'yicha ma'lumot bering.

68.Turistik mahsulotni realizatsiya qilish bo'yicha ma'lumot bering.

69.Turistik mahsulotni turagent tomonidan realizatsiya qilish shartlari nimalardan iborat.

70.O'zbekistonning Milliy turistik brendi haqida nimmlarni bilasiz.

71.Turistik xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risidagi axborotni taqdim etish bo'yicha ma'lumot bering.

72.Turoperatorlar haqida ma'lumot bering.

73. Turagentlar haqida ma'lumot bering.

74.Turoperatorlar huquq va majburiyatlari haqida nimmlarni bilasiz.

75. Turagentlarning huquq va majburiyatlari haqida nimmlarni bilasiz.

76.Turoperatorlar va turagentlar vakolatlari haqida ma'lumot bering.

77.Turistlar huquq va majburiyatlari huquq va majburiyatlari haqida nimmlarni bilasiz.

78.Ekskursantlarning huquq va majburiyatlari haqida nimmlarni bilasiz.

79.Gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya etakchilari hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning huquq va majburiyatlari haqida ma'lumot bering.

80.Turistlar va ekskursantlar bilan mustaqil ravishda shartnomalar tuzishi bo'yicha ma'lumot bering.

81. Turizm sohasi subektlarining birlashmasi haqida ma'lumot bering.

82.Turoperatorlar va turagentlar birlashmasi haqida ma'lumot bering

83.Turoperatorlar va turagentlar birlashmalarining huquqlari bo'yicha nimmlarni bilasiz.

84.Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha ma'lumot bering.

85. Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari bo'yicha nimalarni bilasiz

86.Turoperatorlar va turagentlar tomonidan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ma'lumot bering.

87.Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch xizmatlar bo'yicha ma'lumot bering.

88.Turizm sohasida sug'urta qilish bo'yicha ma'lumot bering.

89.Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha nimalarni bilasiz.

90.Turizm soxasidagi nizolarni hal etish tartibini tushuntiring.

91. Turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalasi haqida nimalarni bilasiz

92.Turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslarga qanday javobgarlik belgilangan. Belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI TURIZM TO‘G‘RISIDA

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son)*
*Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan*
*Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma’qullangan*

## 1-bob. Umumiy qoidalar

### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

### 2-modda. Turizm to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

### 3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**gid (gid-tarjimon)** — axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs;

**yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi** — turistik yo‘nalishlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta’minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs;

**mustaqil turizm** — turistlar tomonidan turoperatorlar va turagentlar ishtirokisiz mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohat;

**turizm sohasining subektlari** — turistik xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko‘rsatish, qo‘shimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

**tur** — turistik xizmatlarning kamida ikkita turini o‘z ichiga olgan turistik xizmatlar majmui bilan ta’minlangan, belgilangan yo‘nalish bo‘yicha aniq muddatlardagi sayohat;

**turizm** — jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi);

**turist** — vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs;

**turistik vaucher** — turistning tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va ularning haqi to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat;

**turistik yo'nalish** — sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro'yxati bo'yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo'li;

**turistik xizmatlar** — joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar;

**ekskursant** — vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs;

**ekskursiya etakchisi** — turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs.

**4-modda. Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari**

Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

turistlarning, ekskursantlarning va turizm sohasi subektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi;

turizmni barqaror rivojlantirish va buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

turizm sohasida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va raqobatni rivojlantirish;

turizm sohasida oshkoralik va ochiqlik.

**5-modda. Turizmning shakllari va turlari**

Xalqaro va ichki turizm turizmning shakllaridir.

Xalqaro turizm quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kirish turizmi — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati;

chiqish turizmi — O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati.

Ichki turizm O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi.

Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo'linishi mumkin.

## 2-bob. Turizm sohasini tartibga solish

### 6-modda. Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

mazkur sohani mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida rivojlantirish;

sayohatlarni amalga oshirish chog'ida fuqarolarning dam olish, erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarini va boshqa huquqlarini ta'minlash;

turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;

normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ichki turizmni rivojlantirish, shu jumladan ijtimoiy turizmni rivojlantirish doirasida bolalar, yoshlar, keksalar, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun turizm hamda ekskursiyalarni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va investitsiyalar kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

tadbirkorlik subektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;

turizm sohasining subektlariga soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash orqali rag'batlantirish;

turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari va mol-mulki himoya qilinishini ta'minlash;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va rivojlantirish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasining turizm uchun jozibador mamlakat sifatidagi nufuzini oshirish;

turizm sohasi subektlarini ular turistik bozorlarda milliy turistik mahsulotni targ'ib qilishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

ilg'or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini rag'batlantirish;

turistik zonalar va turistik klasterlarning rivojlantirilishini rag'batlantirish.

**7-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

turizm sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

turizm sohasida davlat dasturlari va boshqa dasturlar ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi;

turistik zonalar, turistik klasterlarni tashkil etish va ularda turizm sohasi subektlari faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi;

turizm sohasida xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi;

turistlar va ekskursantlarni sug'urta qilish, ularga tibbiy, huquqiy hamda boshqa turdagi yordam ko'rsatish tartibini belgilaydi;

vakolatli davlat organi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;

turistik resurslardan, tabiiy va madaniy meros obektlaridan oqilona foydalanilishini hamda ularning saqlanishini, shuningdek atrof tabiiy muhitning muhofaza qilinishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi;

turistlar va ekskursantlar borishi taqiqlangan obektlar hamda hududlarni belgilaydi;

turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va turizmni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish bo'yicha idoralararo hamkorlikni muvofiqlashtiradi;

mehmonxona xizmatlarini (joylashtirish bo'yicha xizmatlarni), shuningdek turoperatorlar va turagentlar xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlaydi;

turistlar va ekskursantlarning ayrim toifalariga imtiyozlar berish tartibini belgilaydi;

turizm sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

turizm sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi va hukumatlararo shartnomalar tuzadi.

**8-modda. Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi**

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turizm sohasidagi vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Vakolatli davlat organi:

turizm sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

turizm sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

turizm sohasidagi davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi hamda ularning amalga oshirilishini monitoring qiladi;

turizm sohasida viza rejimini takomillashtirish va soddalashtirishga doir takliflar ishlab chiqadi;

turizmning rivojlantirilishini muvofiqlashtiradi, yangi turistik yo'nalishlar tashkil etilishini ta'minlaydi, ularni pasportlashtirishdan o'tkazadi;

Turizm sohasidagi yagona reestrlarni yuritish tartibini belgilaydi;

turistik faoliyatni litsenziyalashni, turizm sohasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirishni, turistik xizmatlar belgilangan talablar va standartlarga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

joylashtirish vositalari, tog' chang'i trassalari va plyajlar tasnifini belgilaydi;

turizm sohasi subektlariga ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarda uslubiy va maslahat yordami ko'rsatadi;

turizm sohasidagi milliy tanitish belgisidan foydalanish tartibini belgilaydi;

turizm sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ularni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

turistik xizmatlarni tashkil etish chog'ida turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash hamda sog'lig'ini saqlash sohasida texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlar ishlab chiqadi;

turistlar va ekskursantlarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan turistik resurslar hamda aloqa vositalaridan moneliksiz foydalanishini ta'minlashga, shuningdek tibbiy, huquqiy va boshqa turdagi yordam olishiga ko'maklashadi;

tabiiy va madaniy meros obektlarini ommalashtirishni, turizm salohiyatini saqlash hamda rivojlantirishni tashkil etadi;

turistik xizmatlar bozorlarida marketing tadqiqotlarini amalga oshiradi;

turizm sohasini rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini, shuningdek xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari hamda grantlarini jalb etadi;

turistik xizmatlar ko'rsatish sifati va xavfsizligi standartlarining ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;

turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishni maqbullashtirish va turistik xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish, turizm sohasiga ilg'or innovatsiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tegishli o'rinbosarlarining turizmni rivojlantirishga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi;

xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi va xalqaro turistik tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi, shuningdek boshqa mamlakatlarning turistik hamda o'zga tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlar o'rnatadi;

turizm sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishiga ko'maklashadi;

turizm sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi xalqaro shartnomalari bajarilishini ta'minlaydi.

Vakolatli davlat organi akkreditatsiya qilingan tashkilotlarni tashkil etishga haqli.

Turizm sohasidagi vakolatli davlat organining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan ijro etilishi uchun majburiydir.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PQ-2666-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risidagi Nizom".

**9-modda. Vakolatli davlat organining hududiy bo'linmalari**

Vakolatli davlat organi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy bo'linmalarga ega bo'ladi.

Vakolatli davlat organi hududiy bo'linmalarining rahbarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, tegishli viloyatlar va Toshkent shahar

hokimlarining taqdimnomasiga binoan vakolatli davlat organining rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining mablag'lari vakolatli davlat organining hududiy bo'linmalarini moliyalashtirish manbalaridir. Vakolatli davlat organi hududiy bo'linmalarining xodimlarini qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirish vakolatli davlat organi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Vakolatli davlat organining hududiy bo'linmalari tegishli hududda quyidagi vazifalarni bajaradi:

tegishli hududda turistik salohiyatni oshirishga qaratilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi amalga oshirilishini ta'minlash;

tegishli hududda turizm sohasidagi, tegishli hududning turistik sohasiga investitsiyalarni jalb etishga doir hududiy dasturlarning ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilish;

turistik resurslarni saqlash va rivojlantirish yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish;

tegishli hududda turistik faoliyat rivojlantirilishini ta'minlash, yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etishga ko'maklashish;

turizm sohasi subektlariga ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarda uslubiy va maslahat yordami ko'rsatish;

tegishli hududda harakatlanish vaqtida turistlar va ekskursantlarning turistik resurslarga moneliksiz kirishini ta'minlashga ko'maklashish;

turistik salohiyatni rivojlantirish, turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan g'ovlarni bartaraf etish, shuningdek turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

turistik bozorlarda tegishli hududning turistik salohiyati targ'ib qilinishini tashkil etish, tegishli hududning turistik jozibadorligini saqlab qolish;

tegishli hududda turizmni rivojlantirish to'g'risida axborotni to'plashni, tahlil qilishni amalga oshirish va uni vakolatli davlat organiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etish.

**10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

tegishli hududda turizm sohasidagi davlat siyosatini hamda ushbu sohani muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

turizm sohasidagi davlat dasturlarini va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

vakolatli davlat organi va (yoki) uning hududiy bo'linmasi bilan kelishuvga ko'ra turizm sohasidagi hududiy dasturlarni, shu jumladan qisqa muddatli hamda o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha tadbirlar rejasini tasdiqlaydi;

tegishli hududda turizm sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

turistlar va ekskursantlarning tegishli hududlarda joylashgan turistik resurslardan hamda aloqa vositalaridan moneliksiz foydalanishini, shuningdek ularning tibbiy, huquqiy va boshqa turdagi yordam olishini ta'minlaydi;

mavjud turistik salohiyatni tahlil qiladi va tegishli hududda turizmni rivojlantirish to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etadi;

tegishli hududda joylashgan turistik resurslarni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularni joriy etadi;

tegishli hududda turistik industriya obektlarini rejalashtirish va qurish, shuningdek er uchastkalarini o'z vaqtida ajratish hamda ularning zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

investorlarni qidirish va jalb etishni, shuningdek tegishli hududda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida ularga ko'maklashishni amalga oshiradi;

aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida turizm sohasida tadbirkorlikni rivojlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi;

turistik axborot markazlarini tashkil etadi.

**11-modda. Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash**

Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (bundan buyon matnda Muvofiqlashtiruvchi kengash deb yuritiladi) turizmni barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari bo'yicha davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, turizm sohasi subektlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida tuziladi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibiga vakolatli davlat organi, manfaatdor davlat organlarining, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiradi.

Vakolatli davlat organi Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organidir.

Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

vakolatli davlat organi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borgan holda turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishining borishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, shuningdek ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal etish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining hisobotlarini eshitib borgan holda turizm sohasidagi tasdiqlangan hududiy dasturlarning bajarilishini, tegishli hududning salohiyatidan foydalanish samaradorligini hamda joylarda mavjud byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ishlarning o'rganilishini tashkil etish;

turizm sohasidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish va qo'shimcha infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan davlat yordamini olish uchun beriladigan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining, shuningdek boshqa tashabbuskorlarning (ariza beruvchilarning) takliflari hamda talabnomalarini har yili ko'rib chiqish;

O'zbekistonning turistik salohiyatini targ'ib qilishga va chet ellik turistlarni jalb etishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni xorijda o'tkazish bo'yicha "yo'l xaritasini" har yili tasdiqlash;

turizm sohasidagi strategiyalar, konsepsiyalar, davlat dasturlari va boshqa dasturlarning vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishining borishi yuzasidan monitoring o'tkazish, shuningdek ular bajarilishining borishi to'g'risidagi har choraklik axborotni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.

Muvofiqlashtiruvchi kengashning hududiy organlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari boshchiligidagi hudud darajasida Muvofiqlashtiruvchi kengash vazifalarini bajaruvchi turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlardan iboratdir.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-son qarori bilan tasdiqlangan "Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi" (2-ilova).

**12-modda. Byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi**

Turizm sohasining rivojlanishini moliyaviy jihatdan qo'shimcha ta'minlash maqsadida vakolatli davlat organi huzurida byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilishi mumkin.

Vakolatli davlat organi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi:

turistik yig'imlardan tushgan tushumlar, xalqaro moliya institutlarining, xorijiy donorlarning grantlari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriyalari, Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini depozitlarga joylashtirishdan olinadigan daromadlar bo'yicha tushumlar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi;

mablag'larni turizm sohasining va turistik industriyaning rivojlantirilishini qo'llab-quvvatlashga, turistik bozorlarda O'zbekiston Respublikasining turistik mahsulotlarini hamda turizm sohasidagi milliy tanitish belgisini targ'ib qilish uchun yo'naltiradi.

**13-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va nodavlat notijorat tashkilotlarining turizm sohasi tadbirlaridagi ishtiroki**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida:

turizm sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

madaniy meros obektlarini targ'ib qilishda, turizm salohiyatini saqlash va rivojlantirishda ishtirok etadi;

turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar kiritadi;

turizm sohasidagi davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

### 3-bob. Turistik industriya

**14-modda. Turistik industriya va turistik industriyadagi xizmatlarning turlari**

Joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish obektlari va ko'ngilochar, ma'rifiy, ishbilarmonlik, davolash-sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga mo'ljallangan obektlar, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar majmui, shuningdek ekskursiya etakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning xizmatlari majmui turistik industriyadir.

Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq turistik industriyadagi xizmatlarning turlari quyidagilardan iboratdir:

turlarni taqdim etish bo'yicha xizmatlar;

yashash joylarini taqdim etish bo'yicha xizmatlar;

ovqatlantirish bo'yicha xizmatlar;

axborotga oid, reklama xizmatlari;

transport xizmatlari;

barcha turdagi transport uchun chiptalar hamda tadbirlarga va ko'ngilochar obektlarga borish uchun chiptalar taqdim etish (band qilib qo'yish, sotish va etkazib berish) bo'yicha xizmatlar.

Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida boshqa turistik xizmatlar ham nazarda tutilishi mumkin.

**15-modda. Turistik industriya obektlarini tasniflash**

Turistik industriya obektlarini tasniflash va ularga toifalar berish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

Joylashtirish vositalarini, tog' chang'isi trassalarini, plyajlarni o'z ichiga olgan turistik industriya obektlarini tasniflash va ularga toifalar berish, shuningdek berilgan Toifalar reestrini yuritish vakolatli davlat organi huzuridagi akkreditatsiya qilingan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Joylashtirish vositalari mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualarni, dam olish uylari va zonalarini, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylarini, o'tov va chodirli oromgohlar, sanatoriylarni hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo'yicha xizmatlar) ko'rsatiladigan boshqa obektlarni, shuningdek joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan er usti transportini o'z ichiga oladi.

Toifa berilgan turistik industriya obektining mulkdori va (yoki) egasi uning mazkur toifaga muvofiq bo'lishini ta'minlashi shart.

**16-modda. Turistik axborot markazi**

Jismoniy va yuridik shaxslarni turistik resurslar hamda turistik industriya obektlari to'g'risida xabardor qilish, shuningdek turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ'ib qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi markaz turistik axborot markazidir.

Turistik axborot markazlarining loyihalari hamda ularda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlar va xizmatlarning) ro'yxati vakolatli davlat organi bilan kelishiladi.

Turistik axborot markazi davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil etilishi mumkin.

## 4-bob. Turistik zonalar va turistik klasterlar

### 17-modda. Turistik zonalar

Muayyan chegaralarga ega bo'lgan, bir yoki bir necha turistik resurslar (tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, davolash-sog'lomlashtirish obektlari, shuningdek turistlar va ekskursantlarning ehtiyojlarini qanoatlantira oladigan boshqa obektlar) joylashgan, kirish turizmini va ichki turizmni, turistik industriyani rivojlantirish, turistik resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan hudud turistik zonadir.

Turistik zonalar davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning taklifiga ko'ra tashkil etiladi.

Turistik zonalar respublika yoki mahalliy darajada tashkil etiladi. Respublika darajasidagi turistik zonalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida, mahalliy darajadagi turistik zonalar esa vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining qarorlari asosida tashkil etiladi.

Turistik zonalarni aniqlashda ularda turistik resurslarning mavjudligi, shuningdek ushbu hududlarning turizm turlarini rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlari inobatga olinadi.

Qurilayotgan turistik industriya obektlarining mulkdorlari va (yoki) egalari turistik zonalarning hududlarida turistik resurslar barpo etilayotganda, shuningdek ulardan foydalanilayotganda ushbu obektlarning mavjud mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy muhitga yoki boshqa tashkiliy-maqsadli muhitga va infratuzilma muhitiga uyg'unlashuvini nazarda tutishi shart.

Turizm sohasi subektlari turistik zonalar hududlarida o'z faoliyatini tashkil etishda va amalga oshirishda atrof tabiiy muhitga, madaniy meros obektlariga hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi shart.

Turistik zonalarda amalga oshiriladigan turistik faoliyat va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turistik zonalarni tashkil etish maqsadlariga monelik qilmasligi kerak.

### 18-modda. Turistik zonalarning turlari

Turizmni kompleks rivojlantirish va turistik resurslarni lozim darajadagi holatda saqlash, tegishli hududning turistik salohiyatini oshirish, shuningdek ularni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilinishini rag'batlantirish maqsadida turistik zonalarning quyidagi turlari tashkil etilishi mumkin:

erkin turistik zona;

kichik turistik zona;

maxsus turistik zona.

Erkin turistik zona erkin iqtisodiy zonaga tenglashtiriladi. Erkin turistik zonaga va erkin turistik zonaning ishtirokchilari sifatida ro'yxatga olingan tadbirkorlik subektlariga nisbatan erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari, shu jumladan erkin iqtisodiy zonalar va ularning ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar hamda preferensiyalar tatbiq etiladi.

Kichik turistik zona kichik sanoat zonasiga tenglashtiriladi. Kichik turistik zonalarga nisbatan kichik sanoat zonalari to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari tatbiq etiladi.

Maxsus turistik zona belgilangan maxsus hudud bo'lib, unda turistik resurslar va ushbu hududda muayyan turistik mahsulotni shakllantirish hisobidan turistlarga xizmat ko'rsatilishini ta'minlovchi turistik industriya obektlari jamlanadi. Maxsus turistik zonani tashkil etishda ushbu zona ishtirokchilari uchun shartlar, imtiyozlar va preferensiyalar belgilanishi mumkin.

**19-modda. Turistik klaster**

Kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui turistik klasterdir.

Turistik klasterlar kompleks turistik xizmatlar ko'rsatish, turistik faoliyatning raqobatbardoshliligi va sifatini oshirish maqsadida turistik mahsulotni shakllantiradi, targ'ib etadi va realizatsiya qiladi.

**5-bob. Turizm sohasidagi faoliyatni amalga oshirish shartlari**

**20-modda. Turistik faoliyatni litsenziyalash**

Turoperatorlik va turagentlik faoliyati, shuningdek sayohatlar tashkil etishga doir boshqa faoliyat turistik faoliyatdir.

Turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turoperatorlik faoliyatidir.

Turistik mahsulotni targ'ib etish va realizatsiya qilish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati turagentlik faoliyatidir.

Turoperatorlar va turagentlar turistik faoliyatni vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Turoperatorlar va turagentlarga turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Bunda ekskursiya xizmatlari ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan jismoniy shaxslarga turistik faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya olish talab qilinmaydi.

Ekskursiya faoliyati yigirma to'rt soatdan oshmaydigan va joylashtirishga (tunab qolishga) doir xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutmaydigan, madaniy meros obektlari, diqqatga sazovor joylar va boshqa obektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya etakchisi hamrohligida ekskursiyalar tashkil etishga doir turistik faoliyatning elementidir.

Turoperatorlar va turagentlar faoliyatini amalga oshirishda litsenziya asosiy talablari va shartlari quyidagilardan iborat:

turistik mahsulot buyurtmachisi bilan turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi tuzilganidan keyin turistik xizmatlar ko'rsatish;

har bir turistga va ekskursantga turistik sayohat vaqtida O'zbekiston Respublikasiga hamda chet davlatlarga kirish, ulardan chiqish va ularda bo'lishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi axborotni etkazish;

turistga va ekskursantga o'z ishi tartibi, joylashgan eri (pochta manzili), litsenziyaning mavjudligi, turizmning muayyan turlarini yuritish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar to'g'risidagi axborotni taqdim etish, shu jumladan mazkur axborotni o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirgan holda taqdim etish.

LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 189-sonli "Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

**21-modda. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish**

Turoperator xizmati, joylashtirish vositalari, tog' chang'isi trassalari va plyajlar majburiy ravishda sertifikatlashtirilishi lozim.

Turoperator xizmatlarini, joylashtirish vositalari, tog' chang'isi trassalari va plyajlarni sertifikatlashtirish vakolatli davlat organi huzuridagi akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish bo'yicha tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish ularning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi hamda ushbu xizmatlarning xavfsizligi va sifatini ta'minlashga qaratiladi.

Vakolatli davlat organi Sertifikatlashtirilgan turistik xizmatlarning reestrini yuritadi.

LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi 355-son qarori bilan tasdiqlangan "Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida nizom".

**22-modda. Turizm sohasida standartlashtirish**

Turistlar va ekskursantlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida turoperatorlik va turagentlik faoliyatini, shuningdek turistik industriya obektlarini standartlashtirish amalga oshiriladi.

Vakolatli davlat organi turistik xizmatlar sohasidagi standartlashtirishga doir ishlarni tashkil etishni, muvofiqlashtirishni, ularning bajarilishini ta'minlashni amalga oshiradi.

**23-modda. Gidlarning (gid-tarjimonlarning), ekskursiya etakchilarining va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning malakasini sertifikatlashtirish**

Gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya etakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan tegishli sertifikat olinganidan keyin yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar sifatida yoxud yuridik shaxslar bilan tuziladigan mehnat shartnomalari asosida mustaqil ravishda xizmatlar ko'rsatishi mumkin.

**24-modda. Turizm sohasidagi yagona reestrlar**

Vakolatli davlat organi Turizm sohasidagi yagona reestrlarni shakllantiradi va yuritadi.

Turizm sohasidagi yagona reestrlar turoperatorlarga, turagentlarga, gidlarga (gid-tarjimonlarga), ekskursiya etakchilariga va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarga nisbatan, joylashtirish vositalariga, tog' chang'isi trassalariga va plyajlarga, shuningdek turistik yo'nalishlar va turistik obektlarga nisbatan yuritiladi.

Turizm sohasidagi yagona reestrlar vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

**6-bob. Turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari**

**25-modda. Turistik mahsulotni shakllantirish va targ'ib etish**

Turistik mahsulot turistik bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda yoxud turistning yoki ekskursantning buyurtmasiga ko'ra turoperator tomonidan shakllantiriladigan, turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan turistik xizmatlar majmuidir.

Turoperatorning turistik mahsulot jumlasiga kiruvchi alohida turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi shaxslar bilan shartnomalar tuzishga va ularni ijro etishga doir faoliyati turistik mahsulotni shakllantirishdir.

Turistik mahsulotni realizatsiya qilishga (reklama qilishga, ixtisoslashtirilgan ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etishga, kataloglar, bukletlar nashr etishga va boshqalarga) qaratilgan chora-tadbirlar majmui turistik mahsulotni targ'ib etishdir.

Turoperator turistlar va ekskursantlarga turistik mahsulot jumlasiga kiruvchi turistik xizmatlar majmui yoki ularning bir qismi mustaqil ravishda yoki alohida turistik xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarni jalb etgan holda ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Turoperator turga kiruvchi xizmatlarga bo'lgan huquqni alohida turistik xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslar bilan yoki turga kiruvchi xizmatlarning barcha turlari ko'rsatilishini ta'minlovchi, turistlar va ekskursantlarni qabul qiluvchi turoperator bilan tuzilgan shartnomalar asosida oladi.

Turistning, ekskursantning yoki turistlar, ekskursantlar guruhi vakili bo'lgan shaxsning turistik mahsulotni shakllantirish uchun turoperatorga beradigan buyurtmasi dastlabki shartnoma xususiyatiga ega bo'lgan bitim tarzida rasmiylashtiriladi.

Kirish turizmi va ichki turizm sohalaridagi turistik mahsulotni shakllantirish faqat O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan turoperatorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Turistik mahsulotni shakllantirish chog'ida turoperator atrof tabiiy muhitga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va madaniy meros obektlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ta'minlanishini nazarda tutishi shart.

Turistik mahsulotni targ'ib etish chog'ida turoperator va turagent turistik mahsulot to'g'risidagi axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'ladi.

Turagent turistik mahsulotni targ'ib etishni turoperator bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiradi.

Turistik mahsulotlarni kirish turizmi va ichki turizm hamda joylashtirish vositalari tarzida reklama qilish chog'ida turizm sohasida belgilangan milliy tanitish belgisidan foydalanish majburiydir.

**26-modda. Turistik mahsulotni realizatsiya qilish**

Turistik mahsulotni realizatsiya qilish turoperator va (yoki) turagent hamda turistik mahsulotning buyurtmachisi o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Turist, ekskursant yoki turist yoxud ekskursant nomidan turistik mahsulotga buyurtma beruvchi boshqa shaxs turistik mahsulotning buyurtmachisidir.

Turagent va turoperator o'rtasidagi shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

turistik mahsulotni turagent tomonidan realizatsiya qilish shartlari;

turagentning turistik mahsulotni turoperator nomidan yohud o'z nomidan realizatsiya qilishga doir huquq va majburiyatlari;

turagent tomonidan ikkilamchi agent shartnomalarini tuzish mumkinligini (mumkin emasligini) nazarda tutuvchi shartlar;

ularga turistik mahsulotning buyurtmachisi tomonidan turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasini ijro etish borasida e'tirozlar bildirilgan taqdirda, turoperator va turagentning hamkorligi tartibi;

turistik mahsulot to'g'risida axborot taqdim etmaganlik yoki noto'g'ri axborot taqdim etganlik uchun, turistik xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun turistik mahsulotning buyurtmachisi oldida turoperatorning va turagentning javobgarligi, shuningdek taraflardan har birining javobgarligi.

Turoperator va (yoki) turagent va turistik mahsulotning buyurtmachisi o'rtasidagi shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

turoperatorning va (yoki) turagentning nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), litsenziyasining yo'nalishi va raqami;

turistik mahsulotning buyurtmachisi to'g'risidagi, uning turistik mahsulotni realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan hajm doirasidagi ma'lumotlar;

turistik mahsulotning qiymati va uni to'lash tartibi;

turoperatorning va (yoki) turagentning hamda turistik mahsulot buyurtmachisining huquqlari va majburiyatlari;

shartnomani o'zgartirish va bekor qilish shartlari;

turoperatorning va (yoki) turagentning va turistik mahsulot buyurtmachisining javobgarligi hamda nizolarni ko'rib chiqish tartibi.

Turoperator va (yoki) turagent va turistik mahsulot buyurtmachisi shartnomada turistik mahsulotdan foydalanish shartlarini, shu jumladan sayohatning dasturini, sayohatning yo'nalishi va shart-sharoitlarini, joylashtirish vositalari, yashash va ovqatlanish sharoitlari, turistni va ekskursantni vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) tashish bo'yicha xizmatlar, ekskursiya etakchisi, gid (gid-tarjimon), yo'riqchi-yo'l boshlovchi mavjudligi, shuningdek qo'shimcha xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kelishib olishi mumkin.

Turoperator va (yoki) turagent hamda turistik mahsulotning buyurtmachisi o'rtasidagi shartnomada boshqa shartlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Ekskursiya etakchilari, gidlar (gid-tarjimonlar) va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar shartnoma tuzmasdan ham o'z xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

**27-modda. O'zbekistonning Milliy turistik brendi**

O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi tanitish belgisi va shiori O'zbekistonning Milliy turistik brendidir.

O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi tanitish belgisining shakli, rangli tasviri hamda shiorning mazmuni vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekistonning Milliy turistik brendidan tovarlarni (ishlarni va xizmatlarni) targ'ib etishda foydalanilishi mumkin.

O'zbekistonning Milliy turistik brendining elementlaridan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

**28-modda. Turistik xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risidagi axborotni taqdim etish**

Turoperatorlar va turagentlar turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasini tuzish chog'ida turistga va ekskursantga quyidagi axborotni taqdim etishi shart:

kirish va chiqish hujjatlarini (vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) kirish va undan chiqish uchun vizani) rasmiylashtirishga nisbatan qo'yiladigan asosiy talablar to'g'risidagi;

rioya etilishi turni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tibbiy rasmiyatchiliklar, shu jumladan turistning va ekskursantning ularda muayyan kasalliklar, jismoniy holatining va yoshining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan taqdirda, turda ishtirok etishiga qarshi ko'rsatmalar to'g'risidagi;

bojxona, chegara qoidalari va boshqa qoidalar (sayohatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda) to'g'risidagi;

vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) turistning (ekskursantning) hayoti xavfsizligiga va sog'lig'iga tahdid soluvchi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda yoki boshqa holatlarda, shuningdek turistning (ekskursantning) mol-mulkiga zarar etishi xavfi yuzaga kelgan hollarda, turist (ekskursant) murojaat qilishi mumkin bo'lgan, vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) mavjud mahalliy davlat hokimiyati organlarining, O'zbekiston Respublikasi diplomatik va konsullik muassasalarining joylashgan eri (pochta manzillari) va aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari to'g'risidagi.

**7-bob. Turoperatorlar va turagentlarning, turistlar va ekskursantlarning, gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya etakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning huquq va majburiyatlari**

**29-modda. Turoperatorlar hamda turagentlarning huquq va majburiyatlari**

Turoperatorlar va turagentlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

turning davomiyligi va yo'nalishini, xizmat ko'rsatish shartlarini, transportda xizmat ko'rsatish turini, turistning, ekskursantning xavfsizligini hamda ularning mol-mulki muhofaza qilinishini ta'minlash choralarini turistning va ekskursantning roziligi hamda xohishiga ko'ra o'zgartirish;

turistning va ekskursantning roziligi bilan ularni tur boshlanishidan kamida yigirma kun oldin bu haqda xabardor etish sharti bilan turning shartlashilgan qiymatini ko'paytirish;

xizmatlar ko'rsatishning imkoni bo'lmaydigan fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, shuningdek guruh tuzish uchun zarur bo'lgan turistlar va ekskursantlarning talab qilinadigan soni yig'ilmagan taqdirda, turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasini bekor qilish, bu haqda turistlar va ekskursantlar tur boshlanishidan kamida yigirma kun oldin xabardor etilishi kerak;

turistlar, ekskursantlar yoki turizm sohasi subektlari tomonidan etkazilgan zararning o'rni qoplanishini va ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishini talab qilish.

Turoperatorlar va turagentlar:

turistlar va ekskursantlarga turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida shartlashilgan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlashi;

turistik xizmatlar ko'rsatilmagan yoki ular to'liq bo'lmagan hajmda ko'rsatilgan yoxud lozim darajada sifatli ko'rsatilmagan taqdirda turistlar va ekskursantlarga etkazilgan zararning o'rnini qoplashi hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilishi;

turistlar va ekskursantlarga turni tashkil etish, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida to'liq axborot taqdim etishi;

turistik resurslarning saqlanishiga ko'maklashishi;

turistlar va ekskursantlar vaqtincha borilgan mamlakatda (joyda) qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirishi shart.

**30-modda. Turistlar hamda ekskursantlarning huquq va majburiyatlari**

Turistlar va ekskursantlar quyidagi huquqlarga ega:

turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan xizmatlardan foydalanish;

sayohat bilan bog'liq to'liq va ishonchli axborot olish, shu jumladan vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) kirish va unda bo'lish qoidalari, mahalliy aholining urf-odatlari, diniy marosimlar, madaniy meros obektlari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va turizm sohasining obektlari, atrof tabiiy muhitning holati to'g'risida axborot olish;

shaxsiy xavfsizligi hamda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ta'minlanishi, shuningdek o'z mol-mulkining but saqlanishi;

shoshilinch tibbiy yordam olish;

turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda moddiy zararning o'rni qoplanishi, shuningdek ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi;

agar turning umumiy qiymati oshishi shartnomada shartlashilgan qiymatidan ortib ketsa, turistik xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomani turoperatorlar va turagentlarga etkazilgan moddiy zararning o'rnini qoplamagan holda bekor qilish.

Turistlar va ekskursantlar:

turda ishtirok etish uchun o'z sog'lig'i holatining va (yoki) yoshining xususiyatlariga bog'liq cheklovlar (qarshi ko'rsatmalar) to'g'risidagi, o'z doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi hamda vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga)

kirishi uchun cheklovlar haqidagi ma'lumotlarni turoperatorning va (yoki) turagentning talabiga ko'ra taqdim etishi;

turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi shartlariga va vaqtincha bo'lish mamlakatining (joyining) qonun hujjatlariga rioya etishi, uning siyosiy hamda ijtimoiy tuzilishini, mahalliy aholining an'analarini, urf-odatlarini, diniy e'tiqodini hurmat qilishi;

vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) atrof tabiiy muhitga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va madaniy meros obektlariga zarar etkazmasligi;

vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) bojxona va chegara nazorati, shaxsiy xavfsizlik qoidalariga rioya etishi shart.

**31-modda. Gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya etakchilari hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning huquq va majburiyatlari**

Gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya etakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar quyidagi huquqlarga ega:

tur vaqtida o'z majburiyatlarini bajarishi uchun turoperatordan, turagentdan yoki turistik mahsulot buyurtmachisidan zarur axborot bilan ta'minlanishini talab qilish;

o'z huquq va majburiyatlarini belgilovchi hujjatlar bilan (shartnoma mavjud bo'lganda) tanishib chiqish;

turistlar va ekskursantlar bilan mustaqil ravishda shartnomalar tuzish.

Gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya etakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar:

tegishli ma'lumotga, malaka sertifikatiga ega bo'lishi va o'z vaqtida malaka oshirishdan o'tishi;

mamlakatning tarixi, madaniyati, etnografiyasi, iqtisodiyotini va boshqa sohalarini rasmiy yoki ishonchli manbalardan bilishi;

turistik yo'nalishni rejalashtirish va ekskursiyada hamrohlik qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

o'z funksional vazifalarini bajarish chog'ida ismi va familiyasi yozilgan ko'krak nishonini (beyjikni) taqib yurishi;

xavfsizlikni ta'minlash choralarini bilishi va favqulodda vaziyatlarda amaliy harakat qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lishi shart.

**8-bob. Turizm sohasi subektlarining birlashmalari**

**32-modda. Turizm sohasi subektlarining birlashmasi**

Turizm sohasi subektlarining kasbiy faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarni ifodalash va himoya qilish maqsadida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti turizm sohasi subektlarining birlashmasidir.

Turizm sohasi subektlarining birlashmasi O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida faoliyatini amalga oshiruvchi turizm sohasi subektlarining ixtiyoriy a'zoligi prinsipiga asoslanadi.

**33-modda. Turoperatorlar va turagentlar birlashmasi**

Turoperatorlar va turagentlar o'z tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida birlashma tuzishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarning ixtiyoriy a'zoligi prinsipiga asoslangan nodavlat notijorat tashkiloti turoperatorlar va turagentlar birlashmasidir.

Turoperatorlar va turagentlar birlashmasi yangi a'zolar kirishi uchun ochiqdir.

**34-modda. Turoperatorlar va turagentlar birlashmalarining huquqlari**

Turoperatorlar va turagentlar birlashmalari quyidagi huquqlarga ega:

turizm sohasi subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi holatining tahlilini o'tkazish;

turizm to'g'risidagi qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

turizm sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda va muhokama qilishda ishtirok etish;

vakolatli davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari tarkibida ishtirok etish;

turizm sohasi subektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish tizimini shakllantirishda ishtirok etish;

turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar tayyorlash va kiritish, turizm sohasini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonlariga boshqa tadbirkorlik subektlarini jalb etish;

O'zbekistonning milliy turistik brendini va mahsulotlarni turistik bozorlarda targ'ib etishga, turizm sohasiga investitsiyalarni, shu jumladan chet el investitsiyalarini, shuningdek zamonaviy texnologiyalarni jalb etishga ko'maklashish.

**9-bob. Xavfsiz turizmni ta'minlash**

**35-modda. Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari**

O'zbekiston Respublikasi hududida turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligini va himoya qilinishini, jamiyat va davlat manfaatlarini, turizmdan shaxslarning qonunga xilof migratsiyasi, ularning mehnatini ekspluatatsiya qilish hamda ularni boshqacha tarzda ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanishga qarshi kurashishni ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligi, ularning mol-mulki but saqlanishi, atrof tabiiy muhitga, jamiyatning moddiy hamda ma'naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarar etkazilishining oldini olish ta'minlanishini nazarda tutadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari barcha turistik yo'nalishlar bo'yicha turistlar va ekskursantlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqadi hamda ularning bajarilishini tashkil etadi.

Turizm sohasi subektlari turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash, tabiiy ofatlar chog'ida, ular jarohatlanganda, kasallikka chalinganda

hamda boshqa hollarda tibbiy va o'zga tarzda yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Vakolatli davlat organi turoperatorlarni, turagentlarni, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid to'g'risida xabardor qiladi, shuningdek xavfsizlikka nisbatan tahdid mavjud bo'lganligi sababli borib ko'rish uchun tavsiya etilmaydigan mamlakatlar (joylar) ro'yxatini ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Muassislari (hammuassislari) davlat organlari bo'lgan ommaviy axborot vositalari vakolatli davlat organiga turistlar va ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid haqidagi axborotni e'lon qilish imkoniyatini darhol va bepul taqdim etadi.

Turistlar va ekskursantlar yuqumli kasalliklarning yuqori darajadagi xavfiga uchrashi mumkin bo'lgan vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) sayohatni amalga oshirish boshlanguniga qadar xalqaro tibbiy talablarga muvofiq profilaktikadan o'tishi shart.

Turistlar va ekskursantlar guruhlarini kuzatib boruvchi shaxslar birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun dasturiy asosda minimal tibbiy tayyorgarlikka, tibbiy buyumlarga hamda dori qutichasiga ega bo'lishi shart.

**36-modda. Turoperatorlar va turagentlar tomonidan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlashga doir chora-tadbirlar**

Turoperatorlar turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

mustaqil turizmni amalga oshiruvchi turistlar va ekskursantlar murojaat qilgan taqdirda, turistlar va ekskursantlarni yo'nalishning xususiyati hamda ularning o'z xatti-harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalari haqida xabardor qilishi, turistlar va ekskursantlarni jarohatlanish hamda baxsiz hodisalarning oldini olish va ulardan himoyalanish usullari bilan tanishtirishi, shuningdek yo'nalishdagi xavfsizlik texnikasi bo'yicha turistlar va ekskursantlarga yo'l-yo'riq berishi;

falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga tezkor yordam ko'rsatishi;

tog', trek, chang'i, velosiped, mototsikl, g'or turizmi (tabiiy er osti yo'laklari — g'orlarga sayohatlar) va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish hamda amalga oshirishdagi xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi;

sayohat vaqtida turistlar, ekskursantlar bilan sodir bo'lgan favqulodda hodisalar to'g'risida, shuningdek sayohatdan qaytib kelmagan turistlar hamda ekskursantlar haqida vakolatli davlat organini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini va manfaatdor shaxslarni darhol xabardor qilishi;

turistlar va ekskursantlarga sayohatlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida, shuningdek sayohat qilish chog'ida ular duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar haqida to'liq ma'lumotlar taqdim etishi hamda turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishi;

tog'li hududda tog', trek, chang'i, velosiped, mototsikl va g'or turizmi hamda turizmning otda sayr qilish turlarini tashkil etish va amalga oshirishda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar xizmatlaridan foydalanishi shart.

Ushbu modda birinchi qismining ikkinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilarida ko'rsatib o'tilgan majburiyatlar turagentlarning ham zimmasiga yuklatiladi.

Sayohatlarni turistlar va ekskursantlar harakatlanishining faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etishga ixtisoslashgan turoperatorlar turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish maqsadida qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar hamda boshqa qutqaruv xizmatlari bilan xizmat ko'rsatilishi uchun shartnomalar tuzadi.

**37-modda. Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch xizmatlar**

O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga zarur yordam ko'rsatish ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar va boshqa qutqaruv xizmatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sog'liqni saqlash, aloqa, ichki ishlar organlari, davlat o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya, fuqaro aviatsiyasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

**38-modda. Turizm sohasida sug'urta qilish**

Turistlar va ekskursantlarni sug'urta qilish ixtiyoriydir, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno hamda turistlar va ekskursantlar tomonidan bunday faoliyatni olib borish huquqiga ega bo'lgan tegishli sug'urta tashkilotlari bilan tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Turoperatorlar va turagentlar turistik mahsulotning xususiyati hamda shakliga qarab turistlar va ekskursantlarda sug'urta polisi mavjud bo'lishi to'g'risida talab belgilash huquqiga ega.

Turoperatorlar o'zining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishi shart.

**10-bob. YAkunlovchi qoidalar**

**39-modda. Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik**

Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hamda qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

**40-modda. Nizolarni hal etish**

Turizm sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**41-modda. Turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

**42-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida**

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan "Turizm to‘g‘risida"gi 830-I-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 227-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan "Turizm to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 831-I-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 228-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-aprelda qabul qilingan "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish tartib-taomillari soddalashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘RQ-31-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 157-modda) 7-moddasi;

4) O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘RQ-476-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 224-modda) 36-moddasi.

**43-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, etkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash**

Vakolatli davlat organi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga etkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**44-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**45-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**
**SH. MIRZIYOEV**

**Toshkent sh.,**
**2019-yil 18-iyul,**
**O‘RQ-549-son**

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatining birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 32 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.-48 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- Toshkent: O'zbekiston, 2017.-104 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.-488 b.

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.-Toshkent: Ma'naviyat, 2017.-244 b.

### Konstitutsiya va qonunlar

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.Adolat, 2017.

7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.-Toshkent: Ma'naviyat, 2017.-244 b.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyudagi "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Halqaro turizmni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni.// Xalq so'zi, 1995 yil 3 iyun

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek turizm" MKni tashkil etish to'g'risidagi Farmoni.//Xalq so'zi.1992 yil 28 iyul.

